

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida
UDK (371, 913)*

Mirzayeva Maftuna Muhitdinovnaning

**«Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatga
o‘rgatish metodikasi»**

Mutaxassislik: *5A 111901 – Surdopedagogika*

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Himoya qilishga ruxsat

Magistratura bo‘limi boshlig‘i
_____M.Esanov

2014 y «____»iyun

“Korreksion pedagogika ”

kafedra mudiri, p.f.n., dots
_____ SH.Amirsaidova

Ilmiy rahbar: p.f.n., dots. v/b

_____ Z.Axmedova

Toshkent-2014 yil

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Fakultet: Defektologiya

Mutaxassisligi: 5A111901

Surdopedagogika

Kafedra: Korreksion pedagogika

Ilmiy rahbar: p.f.n., dots. v/b
Z.Axmedova

O‘quv yili: 2012-2014

Magistratura talabasi: Mirzayeva
Maftuna Muhitdinovna

**“ Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish
metodikasi” nomli**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi: Milliy surdopedagogikada maxsus ta‘lim sohasida eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar nutqini rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish masalalari umumiy tarzda o‘rganilgan, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirish muammolari ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o‘rganilgan. Tadqiqotlarni o‘rganish va ularni tahlil etish natijasida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatishni o‘rganish tizimli yondashishni talab qiladigan o‘ta murakkab, ko‘p qirrali ijtimoiy-pedagogik muammodir, degan xulosaga keldik. Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatishning samarali shakl va usullarini izlab topish, yaratish hozirda dolzarbligi bilan muhimdir.

Tadqiqot maqsadi: Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish jarayonini o‘rganish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish

Tadqiqot vazifalari:

- Mavzu bo'yicha maxsus pedagogik, maxsus psixologik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish;
- Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish bo'yicha amaliyotdagi mavjud ahvolni o'rganish va tahlil qilish;
- Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatishning samaradorligini oshirish yo'l va usullarini aniqlash, metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar

Tadqiqot predmeti: Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish jarayoni

Tadqiqotning uslubiyati va uslublari:

- Mavzuga doir maxsus pedagogik, maxsus psixologik adabiyotlarni o'rganish;
- Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish jarayonini kuzatish va tahlil qilish;
- Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish bo'yicha ish tajribasini o'rganish;
- Maxsus maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyachilarining tibbiy-pedagogik hujjatlarini o'rganish va tahlil qilish;
- Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatishning yo'llari va usullarini qay holatda ekanligini aniqlash maqsadida eksperiment o'tkazish;
- Savol-javob, suhbat, so'rovnoma, kuzatish;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatishning yo'llari va usullarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berildi;

—Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o‘rgatishning yo‘llari va usullarini o‘rganildi, ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan ochib berildi;

—Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o‘rgatishning yo‘llari va usullari bo‘yicha pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodologik asosini: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi “Sog‘lom bola yili” Davlat dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan davlat dasturlari, maxsus adabiyotlardan V.A.Korsunskaya, M.Y.Rau, A.A.Vengerlarning maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar tasviriyl faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etishga doir metodik ko‘rsatmalari tashkil etadi.

Ishning tuzilishi va tarkibi: Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uchta bob, hulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatidan iborat.

Ilmiy rahbar:

p.f.n., dots. v/b Z.Axmedova

Magistratura talabasi:

M.M.Mirzayeva

**THE MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY NAMED
NIZAMI**

Faculty : Defectology

Specialty: 5A111901 –
Surdopedagogy

Department : Correction Pedagogy

Scientific advisor: candidate of
pedagogical sciences, assistant
professor Z.Akhmedova

Academic year: 2012-2014

Master's Student: Mirzayeva
Maftuna Mukhidinovna

ANNOTATION

for the Master's dissertation on

**« The methodology of teaching drawing to the children with
hearing defect »**

Topicality of the subject of the Master's dissertational work: Generally National Surdopedagogy as a special educational branch investigated the issues of improving speaking ability of pupils with hearing defect and preschool children with impaired hearing, afterwards deep investigations on developing pronunciation skills of the children with hearing defect scientifically and theoretically conducted. At the result of learning and analyzing these investigations we came to the conclusion that from the point of pedagogy teaching drawing to the children with hearing defect is a very crucial, difficult and major problem which needs a systematic and deep research. Nowadays investigating or creating effective ways and methods of teaching drawing to preschool children with hearing defect is very important.

The main objective of the Master's Dissertation: to survey the process of teaching drawing to the children with hearing defect and to recommend new methods.

Consistent with this objective ***the following tasks*** have been put:

- the analysis of basic psychological and pedagogical references on this topic;
- to study and analyze real conditions and the problems of teaching drawing to the children with hearing defect;
- to create new principles of increasing effectiveness of teaching drawing to the children with hearing defect and make some methodological recommendations ;

The object of the research : the process of teaching drawing to the children with hearing defect.

The subject for study : the principles and methods of teaching drawing to the children with hearing defect.

Methodological basis of research :

- to analyze basic psychological and pedagogical references related to the topic;
- to study and analyze the process and conditions of teaching drawing to the children with hearing defect ;
- to analyze current experiences on teaching drawing to the children with hearing defect;
- to study and analyze medical and psychological documents of the preschool children in Special nursery schools;
- to conduct an experiment to test the effectiveness of current methods of teaching drawing to the children with hearing defect;
- questionnaires, conversations, quizzes, study papers.

The scientific novelty of the research :

- to allow us to obtain scientific and theoretical bases of the methods of teaching drawing to the children with hearing defect ;

- to determine new principles and methods of teaching drawing to the children with hearing defect from the point of pedagogy ;
- Suggest the methodological recommendations and strategic plans of teaching drawing to the children with hearing defect ;

The methodological content of the present work is focused on Constitution of the Republic of Uzbekistan, The Law of The Republic of Uzbekistan “About Education”, “National Program on Preparing Cadres”, State Program on” The year of Healthy Generation”, State Program on “ The Year of Healthy Child”, decrees of the Cabinet of Ministries of the Republic of Uzbekistan, special references such as methodological handbooks of V.A.Korsunskaya, M.Y.Rau , A.A.Venger on organizing drawing lessons for the preschool children with hearing defect.

Structural composition of the work : The work consists of the introduction, three chapters, the conclusion and the list of the literature used.

Scientific advisor:

**candidate of pedagogical sciences,
assistant professor.
Z.Akhmedova**

Student of Master Department:

M.M,Mirzayeva

Mundarija

Kirish

I BOB. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishning ilmiy-nazariy asoslari.....

1.Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish muammosini maxsus pedagogikada o'rganganlik holati.....

2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatining xususiyatlari .

Birinchi bob bo'yicha xulosa.....

II BOB. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning tasviriy faoliyatini eksperimental o'rganish.....

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatini eksperimental o'rganish jarayonini tashkil etish va o'tkazish metodikasi.....

2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatini eksperimental o'rganish natijalari tahlili.....

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....

III BOB. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishning pedagogik shart-sharoitlari.....

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish bo'yicha korreksion pedagogik ish mazmuni.....

2. Ta'limiy tadqiqot natijalari.....

3. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishning samarali yo'llari.....

Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

Ilova.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi Mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan davrni sarhisob qilsak, hukumatimiz tomonidan inson manfaatlarini ko‘zlash va himoyalash jarayonida jamiyatimizning alohida yordamga muhtoj qatlamiga jiddiy e‘tibor qaratib kelinayotganini kuzatamiz. O‘zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat qurish yo‘lidan borar ekan, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlab, jamiyatni ma‘naviy jihatdan boyitib borishni, dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvni amalga oshirmoqda. Jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik o‘zgarishlar jismoniy va ruhiy nuqsonga ega bo‘lgan bolalarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Prezident I.A.Karimov aytganlaridek: «Farzandlari sog‘lom yurt qudratli bo‘ladi, qudratli yurtning farzandlari sog‘lom bo‘ladi»¹. Sog‘lom avlodni tarbiyalab o‘stirish g‘oyatda mas‘uliyatli vazifa, shu bilan birga insonparvar siyosat natijasidir. Maxsus maktabda eshitishida nuqsoni bo‘lgan va zaif eshituvchi bolalarni boshqa barcha fuqarolar bilan teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlash, ularning turmush faoliyatidagi cheklanishlarni bartaraf etish, to‘laqonli hayot kechirishlariga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy turmushida faol qatnashishlariga, shuningdek, o‘zlarining fuqarolik burchlarini bajarishlariga imkon beradigan qulay shart-sharoitlar yaratish davlatimiz insonparvarlik siyosatining asosiy mazmunini tashkil etadi. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan yurtimizda har tomonlama sog‘lom avlodni voyaga yetkazish borasidagi islohotlarni izchil davom ettirish va yuksak bosqichga ko‘tarish maqsadida kirib kelgan 2014-yil mamlakatimizda “Sog‘lom bola yili” deb e‘lon qilindi. Yurtimiz qudrati, jamiyat ravnaqi kelajagimiz egalari bo‘lgan bolalarning ham jismoniy, ham ma‘naviy jihatdan sog‘lomligiga bog‘liqdir. Bu tashabbus mamlakatimiz ahli tomonidan iliq kutib olinganligining sababi ham shundan. Qabul qilingan «Sog‘lom bola yili» davlat dasturi mamlakatimizda ona va bola skriningi, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog‘lom bola tug‘ilishi, jismoniy va ma‘naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va

¹ I.A.Karimov Yuksak ma‘naviyat–engilmas kuch. Toshkent: O‘zbekiston, 2008.-23.bet

samaradorligini oshirishga oid chora-tadbirlarning uzviy davomi sifatida samarali bo'lishiga to'liq asos bor. Mamlakatimizda jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish uchun aniq maqsadga qaratilgan keng ko'lamdagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat va jamiyatning barcha kuch va imkoniyatlarini shu yo'lda safarbar etish maqsadida hamda 2014 yil «Sog'lom bola yili» deb e'lon qilinishi munosabati bilan «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi tayyorlandi²: «Sog'lom bola yili» Davlat dasturini amalga oshirishning ustuvor vazifalari yo'nalishlari etib sog'lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish uchun qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, bu borada qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan yangi qoida va meyorlarni ishlab chiqish; sog'lom bolaning dunyoga kelishi masalasiga sog'lom va ahil oilaning mevasi sifatida qarab, oilada o'zaro hurmat va mehr-muhabbat, yuksak axloqiy va ma'naviy qadriyatlar muhitini shakllantirish, yosh oilalarning oyoqqa turib olishi uchun moddiy yordam ko'rsatish, onalik va bolalik muhofazasini ta'minlash, ona va bolaning salomatligini mustahkamlash, ayollarning o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ro'zg'or tashvishlarini yengillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; sog'lom bolani voyaga yetkazishda, patologiyalarsiz bolalar tug'ilishida sog'liqni saqlash tizimi va tibbiyot hodimlarining roli va mas'uliyatini oshirish, sog'liqni saqlash tizimining moddiy-texnika bazasini va kadrlar salohiyatini yanada mustahkamlash ko'zda tutildi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida islohotlarni bosqichma-bosqich maktabgacha ta'limga uning moddiy va ma'naviy bazasini mustahkamlashga ham katta ahamiyat beriladi. Mamlakatimiz ta'lim muassasasida tasviriy san'at

² «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi Toshkent, 2014

fanini o'qitishda yosh avlodga komillik fazilatlarini o'ziga xos tarzda shakllantirishda, tasviriy san'at orqali bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish, milliy madaniy merosni o'rganishlari hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqindan tanishishlari uchun ko'maklashadi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari davomida bolalar tevarak atrofidagi narsa-hodisalarni idrok etadilar, o'zbek milliy xalq amaliy san'ati, tasviriy san'at turlari bilan tanishadilar. Ushbu san'at turlarini o'ziga xos xususiyatlarini anglab yetadilar. Eng muhimi bolalarning badiiy fikr doirasi kengayadi, tasviriy san'atga nisbatan qiziqish va muhabbati tarbiyalanadi, ularning estetik va emotsional sezgirliklari oshadi, ahloqiy sifatlari o'sadi. Bu o'z o'rnida maktabgacha ta'lim tizimida tasviriy san'atni o'qitishda jiddiy e'tibor berilishini, ularni har tomonlama o'rgatishni, rivojlantirish yosh avlodlarga san'atning sir asrorlarini o'zlashtirish, ularning estetik didini o'stirish hamda boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimiz, umuminsoniy qadriyatlariga hurmat, Vatanga muhabbat, milliy istiqlool g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashni talab etadi.

Milliy surdopedagogikada maxsus ta'lim sohasida eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar nutqini rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish masalalari umumiy tarzda o'rganilgan, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirish muammolari ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganilgan. Tadqiqotlarni o'rganish va ularni tahlil etish natijasida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishni o'rganish tizimli yondashishni talab qiladigan o'ta murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-pedagogik muammodir, degan xulosaga keldik. Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishning samarali shakl va usullarini izlab topish, yaratish hozirda dolzarbligi bilan muhimdir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi muammolarini tadqiq qilish surdopedagogika fanining asosiy tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Bu sohada xorijda G.G.Grigorev, A.V.Zaporojes, Y.I.Ignatev, A.A.Lyublinskaya, Y.A.Poluyanov, N.P.Sakulina,

Y.A.Flerina, K.M.Lepilov, Y.V.Rezigroyev, V.I.Beyer, bolalarga ta'lim berishda rasm chizish texnikasini o'rgatishni; E.Eysner, S.Sezo, S.Tada, R.Shokar, badiiy ta'limning muhim jihatlari xususida; T.G.Kazakova, I.A.Likova, Korrodo Richchi, Liberti Tedd, V.M.Bexterev kabilar bolalar ijodiyoti rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini; G.N. Panteleyev, L.V.Panteleyeva, S.A.Zikov, T.S.Zikova, L.P.Noskova, N.G.Morozova, B.D.Korsunskaya, N.G.Soshnikova, V.Petshak, D.J.Higginbotham, A.R.Zedenberg, B.P.Yusova, N.D.Mini, M.Y.Rau, E.I.Leongard, YE.G.Samsonova N.D.Shmatko, T.V.Pelinskaya, I.V.Koroleva, V.I.Pudov, O.V.Zontova, A.D.Salaxova, N.V.Kochegarova, V.N.Svodina, L.S.Vigotskiy, R.M.Boskis, K.G.Korovin, V.A.Sinyak, A.G.Basova, S.F.Egorov, A.I.Dyachkov, E.V.Mironova, M.K.Sheremet, N.D.Shmatko, L.A.Golovchin; milliy surdopedagogikada N.SH.Bekmurodov, X.M.Gaynutdinov, F.J.Alimxodjayeva, U.Y.Fayziyeva, N.H.Dadaxo'jayeva, F.U.Qodirova, D.Nazarova, R.Raximovalarning eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilar ta'lim-tarbiyasi jarayonini takomillashtirish orqali ularning ijtimoiy moslashuvlari darajasini ko'tarishning yo'l va vositalarini asoslab berish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlari diqqatga sazovordir.³

Tadqiqot maqsadi: Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatini o'rganish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish

Tadqiqot vazifalari: Tadqiqotning maqsadini amalga oshirish uchun ish oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- Mavzu bo'yicha maxsus pedagogik, maxsus psixologik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish;
- Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish bo'yicha amaliyotdagi mavjud ahvolni o'rganish va tahlil qilish;

³ F.U Qodirova. Boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini shakllantirish.: Ped. fan. nomz. dis. avtoref... – Toshkent:TDPU, 2006. – 20 b.

- Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatishning samaradorligini oshirish yo‘l va usullarini aniqlash, metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar

Tadqiqot predmeti: Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish jarayoni

Tadqiqot bazasi: Toshkent shahar Olmazor tumani 106-zaif eshituvchilar maktab internati qoshidagi maktabgacha tarbiya bo‘limi

Tadqiqotning ilmiy farazi: shundan iboratki, agar:

- Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatishning yo‘llari va usullarini har tomonlama o‘rganilsa;
- Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatiga o‘rgatish jarayonida eshitishi nuqsoni bo‘lgan bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinsa;
- Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatishning samarali yo‘llari, qulay shart-sharoitlari yaratilsa;
- Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish bo‘yicha ilmiy asoslangan pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilsa, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatishning samaradorligi oshadi.

Tadqiqotning uslub va uslubiyatlari:

- Mavzuga doir maxsus pedagogik, maxsus psixologik adabiyotlarni o‘rganish;
- Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish jarayonini kuzatish va tahlil qilish;
- Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish bo‘yicha ish tajribasini o‘rganish;
- Maxsus maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyalanuvchilarining tibbiy-pedagogik hujjatlarini o‘rganish va tahlil qilish;

— Savol-javob, suhbat, so‘rovnoma, kuzatish;

Tadqiqotning metodologik asosini: O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi “Sog‘lom bola yili” Davlat dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan davlat dasturlari, maxsus adabiyotlardan V.A.Korsunskaya, M.Y.Rau, I.A.Likova, A.A.Vengerlarning maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etishga doir metodik ko‘rsatmalari tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatishning yo‘llari va usullarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berildi;
- Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatishning yo‘llari va usullarini o‘rganildi, ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan ochib berildi;
- Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatishning yo‘llari va usullari bo‘yicha pedagogik va psixologik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati: Ishning natijalari maxsus maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarining tasviriy faoliyatga qiziqtirish va estetik tarbiyasini rivojlantirishda foydalaniladi. Dissertatsiya materiallari “Tasviriy san’at o‘qitish maxsus metodikasi”, “Mehnat ta’limi maxsus metodikasi”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”, “Predmet amaliy ta’lim” kurslarini nazariy jihatdan boyitadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Dissertatsiyaning natijalaridan, tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalardan Defektologiya fakulteti professor-o‘qituvchilari va talabalari, xalq ta’limi tizimining barcha maxsus muassasalarining tarbiyachi, defektologlari, ota-onalar foydalanishlari mumkin.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

Birinchi bosqich: (2013 yil)—tadqiqot muammosi bo'yicha tegishli adabiyotlar, maxsus maktabgacha tarbiya muassasalaridagi ilg'or ish tajribalari o'rganildi. Natijada tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ilmiy farazi va metodlari aniqlandi hamda dastlabki materiallar to'plandi.

Ikkinchi bosqich: (2013-2014) —tadqiqot dasturi, nazariy asosi, mazmuni aniqlandi va ishning eksperimental asoslarini tasdiqlovchi tajribalar metodikasi tayyorlandi.

Uchinchi bosqich: (2014 yil)Ta'kidlovchi tadqiqotda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishning bo'yicha korreksion pedagogik ishning xususiyatlari o'rganildi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish bo'yicha metodik tavsiyalar berildi.

Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishning ilmiy-nazariy asoslari

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish muammosini maxsus pedagogikada o'rganganlik holati

Maktabgacha ta'limning bosh vazifasi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, shuningdek, bola shaxsini shakllantirish, uning bilimga qiziqishini, madaniy-ahloqiy ehtiyojlarini, dastlabki mehnat ko'nikmalarini tarkib toptirish, ilmga muhabbat qo'yish hissini tarbiyalash, ularda olam haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish, salomatligini mustahkamlashdan iborat. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ularni tabiatni, undagi hodisalarni estetik idrok etish malakalarini tarkib toptirib borish ham ularni maktab ta'limiga tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tizimiga qo'yiladigan zamonaviy talablar uning pedagogik jihatlarini yangilash, maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar, ilgari surilayotgan ijtimoiy talablar asosida yangilab, takomillashtirib borishni taqozo etadi. Bunda, birinchi navbatda, jarayonning nazariy va amaliy asoslarining mantiqiy bog'liqligi, yosh avlodning intellektual, ma'naviy-axloqiy, jismoniy va estetik jihatdan hayotga tayyor kishilar bo'lib yetishishlari uchun pedagogik sharoit hamda ta'lim mazmunini taqdim etish jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi⁴.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash tizimining samarali ishlashiga erishishni ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim muassasi va oilada ularning keng qamrovli faoliyatini ta'minlaydigan pedagogik sharoit yaratish zarur. Bu esa bolalarda atrof-olam hamda undagi voqea va hodisalarni anglash ko'nikmalarini tarkib toptirish vositasida ularning maktab ta'limiga tayyor bo'lishlarini, bu jarayonda lozim bo'ladigan sobitqadamlik, g'oyaviylik, o'rtoqlari, tengdoshlariga do'stona munosabat, ularni tushunish,

⁴ Т. И. Обухова Изучение готовности младших дошкольников с нарушением слуха к созданию предметного изображения / Т. И. Обухова, Е. Н. Сороко// Дефектология. - 2012. - № 4. - С. 58-65

mehnatsevarlik kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bu borada keng imkoniyatlarga ega.

Bolalarni rasm ishlash texnikasiga o'rgatish hech qachon birdaniga amalga oshmagan. Bolalar bop rasmlarning dastlabki tadqiqotchilari - Korrodo Richchi, Liberti Tedd, V.M.Bexterev kabilar bolalar ijodiyoti rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini ta'kidlagan holda, ularni rasm ishlashga o'rgatishning zarurligini uqtirib o'tgan ⁵.

Bolalarga rasm ishlash texnikasini maxsus mashqlar tizimi orqali o'rgatish g'oyasi birinchilardan bo'lib italiyalik san'atshunos Korrodo Richchi tomonidan qo'llab-quvvatlangan bo'lib, ularsiz hatto kattalar ham bolalarning bilim saviyalari darajasida qolishi mumkinligini ta'kidlagan.

Filadelfiyadagi badiiy ishlab chiqarish maktabining direktori, akademik Liberti Tedd qo'lning chaqqonligi, uning harakatchanligini tasvir mazmunini ifodalashning muhim sharti sifatida qaragan. Uning fikrini qo'llab-quvvatlagan holda ta'kidlash joizki, qo'lning chaqqonligi rasm ishlash texnikasini egallash, keng ma'noda bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish, ko'pgina faoliyat turlaridan asqotadigan rassomlik mahoratini rivojlantirish uchun zarur. Shularni e'tiborga olgan holda Liberti Tedd rasm chizishda qo'l harakatlari uchun maxsus mashqlar tizimini ishlab chiqdi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan bu mashqlarni bolalar jon-dillari bilan bajaradilar. Bu mashqlar tizimida faqatgina geometrik shakllarni chizdirish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki tabiiy unsurlarni chizdirish va bu orqali bolalarning ona tabiatga bo'lgan qiziqishlari, kuzatuvchanliklarini rivojlantirish lozimligini ta'kidlaydi ⁶. Bu omil O'zbekiston sharoitida bolalarni amaliy san'atning naqqoshlik turi asoslarini o'rganish orqali olamni anglash ko'nikmalarini tarbiyalashda samarali qo'llanishi mumkin. Zero,

⁵ В. Давыдова, Ж. Г. Нетрадиционные техники изобразительной деятельности на занятиях с глухими детьми Воспитание и обучение детей с нарушениями развития. - 2005. - №6. - С. 22 - 24.

⁶ Н.В Краснов. История искусства зарубежных стран. Учебник для студентов. — Москва: Изобразительное искусство, 1999. — 170 с.

naqqoshlikning islami turi aynan tabiatni estetik o'zlashtirish asosida shakllarni stilizatsiyalash (badiiylashtirish) vositasida yaratiladi.

Kezi kelganda ta'kidlab o'tish lozimki, bolalarning tasviriy faoliyati borasida, ularning tasviriy san'atning nazariy va amaliy asoslarini egallashlari yuzasidan mutaxassislarning turlicha qarashlari mavjud. Ayrim olimlarning fikricha, bolalarning tasviriy faoliyatlariga kattalarning aralashuvi mumkin emas. Bunda o'quvchilarning o'ziga xos qobiliyatlari o'z ta'sir kuchini yo'qotishi mumkin, deb hisoblaganlar. Bu ta'limot "erkin badiiy tarbiya" deb atalib, XX asrning boshlarida umumiy o'rta ta'lim tizimidagi "Rasm" (hozirgi "Tasviriy san'at") darslariga tatbiq etishga urinishlar ham bo'lgan. Bir guruh pedagoglar, xususan, K.M.Lepilov, Y.V.Rezigroyev, V.I.Beyerlar bolalarga ta'lim berishda rasm chizish texnikasini o'rgatishni ma'qullaganlar⁷. Bolalarga ta'lim berishda rasm chizish texnikasini o'rgatishga qarshi bo'lgan olimlarga javob tariqasida K.M.Lepilov shunday deb yozadi:⁸ "Ba'zi birovlar bolalar - tugal rassomlardir, deb aytishadi. Agar ana shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, menimcha, ularni umuman o'qitish kerak emas. O'z holiga tashlab qo'yilgan bola ma'lum bo'sag'ada turib, o'zlari uchun aniq, sevimli bo'lgan mavzu va chizmalarda to'xtab qoladilar, ilgarilab ketmaydilar. Boshqa tomondan ular grafik savodxonlikka ega bo'lmaydilar". Bolalarni nimagadir o'qitish kerakligi haqidagi fikrni rivojlantirar ekan, u rahbarning bolalarni har xil materiallarning o'ziga xos xususiyatlarini egallashlari, ular bilan ishlash ko'nikmalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi lozimligini ta'kidlaydi. Masalan, bolalarning qo'lga mo'yqalam, bo'yoqni berib, ular bilan ishlash va bo'yoqlarni qanday aralashtirish, qog'ozga surtishni, albatta, uning texnikasini bilgan mutaxassis amaliy ko'rsatishi va jarayonni izohlashi lozim.

Tasviriy faoliyat badiiy obrazli hamda grafik usulda amalga oshiriladi. U harakatlar yordamida mos asboblar (qalam, mo'yqalam) bilan amalga

⁷ Б.П. Юсов Проблема художественного воспитания и развития школьников. Автореф. дис. . . . док.пед.наук. — Москва,-16 с.

⁸ П.М.Якобсон Психология чувств. Изд. 2. — Москва: Просвещение, 1958. — 164 с.

oshiriladi va bir qator maxsus ko'nikma va malakalarni qamrab oladi. Ular boshqa mavjud malakalar kabi muayyan xususiyatlarni o'rganib, bilib olib, harakatlar tartibini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Bolalar rasm ishlashga oid harakatlarda umuman harakatlarni tafsiflaydigan, ularning xususiyati esa tasviriy faoliyatning texnikaga oid tomonlarining o'ziga xos xususiyatlarini, bu jarayonda qo'llaniladigan qurol va asboblardan materiallardan foydalanishning elementar asoslarini o'zlashtirgan bo'lishi lozim.⁹ Hozirgi vaqtda qator mamlakatlarda bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini ifodalash maqsadida tasviriy ko'nikma va malakalarning ahamiyati ortib borayotganligi bois bolalarning tasviriy bilimlarini, ijodini rivojlantirish, ularning tasviriy faoliyat borasidagi malakalarini shakllantirishning muhim shartlaridan ekanligi tan olinmoqda. Nemis olimi R.Myuller badiiy tarbiyani yaxlitligicha yaxshilash ishlarini va jumladan tasviriy faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari haqidagi masalani tahlil qilib, buning uchun bolalar bilim, malaka, iqtidorlikni doimo uyg'unlikda egallashi kerak, degan xulosaga keladi¹⁰. Bu uyg'unlikka muallif bolalarning ko'rganlarini tasvirlashni bilishi qobiliyat sifatida e'tirof etadi. Tasvirni hosil qilish uchun bolalarda narsalar va atrof-muhitdagi hodisalar haqidagi tasviriy xususiyatlarini, kuzatuvchanliklarini rivojlantirish, predmet va hodisalardagi muhim ahamiyatga ega bo'lganlarini ajratish, u yoki bu predmetning o'ziga xos xususiyatlarini eslab qolishning uddasidan chiqish zarur. Ana shu asosda bolalarda nimalarning rasmini chizish lozim bo'lsa, shuni tasavvur qilishga intilish sifatleri shakllanadi. R.Myuller fikricha¹¹, yuqorida aytib o'tilgan komponentlarni tasvirlash uchun qobiliyatni rivojlantirishning o'zi yetarli emas. Bola muayyan tasvirni hosil qilishni uddalay olishi uchun, u texnika va materiallarni, bo'yoqlarning qo'llanilishini badiiy-texnik usulini va ulardan foydalanish tartibi, texnikasini bilishi lozim. U shuningdek, bolalar qo'l harakatlarini o'rganib, bilib olishi, ularni boshqarishni

⁹ Д.Н Колдина. Лепка/Аппликация с детьми 3-4 лет.-М.: Мозаика-Синтез,2007.-34.с.

¹⁰ Эмоциональное развитие дошкольника. Пособие для воспитателей детских садов. Под. ред. А. Д. Кошелевой. — Москва: Просвещение, 1985.— 105 с.

¹¹ Эмоциональное развитие дошкольника. Пособие для воспитателей детских садов. Под. ред. А. Д. Кошелевой. — Москва: Просвещение, 1985.— 65 с.

o'rganishi kerak, deydi. Chizish texnikasi va usullarini bilish va ularni qo'llay olish bolalarni ifodali vositalardan foydalanishga yordam berishi lozim.

Tasviriy faoliyatni o'rganib, bilib olish uchun deyarli yaxshi namuna bo'ladigan bu yo'lni nemis pedagog olimlaridan biri Regel ham e'tirof etgan¹². U badiiy tasvir muammosining uchta tomonini: 1) butun borliq, voqelikni ko'rsatish, tasavvur qilish; 2) yaratiladigan (chiziladigan) rasmning bir butun, yaxlitligini ko'rsatish, tasavvur qilish; 3) badiiy-texnik vositalarning vazifasini to'g'ri talqin qilish, ularning qo'llanishiga ko'ra bir-biridan farqlash.

Nemis olimi R.Mayne bolalar ijodini real san'at nuqtai nazaridan qarab, bolalarning tasviriy faoliyat malakalarini egallab, o'rganib bilib olishlarini rivojlantirish ularning badiiy-texnik qobiliyatlarini shakllantirishning muhim shartidir, deb hisoblaydi. U unga tasviriy harakatni kiritib, ular maqsadga qaratilgan faoliyat jarayonida rivojlanishini ta'kidlaydi.¹³ Nemis pedagogining fikricha, bolalardan harakatlarning yuqori maqsadga yo'naltirilganligi va faoliyatning onglik darajasiga erishish uchun ularning oldiga mazmunli, ta'sirchan va asosli talab, vazifalarni qo'yish kerak. Badiiy ijodda oxirgisini rivojlantirish uchun kichik yoshdagi bolalar oldiga qiziqarli va muayyan harakatlarni bajarishni talab etadigan keng miqyosdagi vazifalarni qo'yish maqsadga muvofiq. Tasvirni yaratish jarayonida bola bilan maslahatlashib olish mumkin, diqqatni ishning o'xshashligiga, shuningdek, ularni bir necha bor qaytarilishiga ongli ravishda e'tibor berishini talab qilish lozim. Bolalar shu yo'l orqali o'zlarining harakatlarini ko'rib, nazorat qilishni o'rganadi.

Ta'limning, ayniqsa, badiiy ta'limning muhim jihatlari xususida E.Eysner (AQSH), S.Sezo, S.Tada (Yaponiya), R.Shokar (Fransiya) va boshqalar bu sohaga alohida e'tirof qaratish lozimligini ta'kidlaydilar¹⁴. Ayniqsa, yapon olimlarining badiiy tarbiya sohasini, xususan, maktabgacha ta'lim va tarbiya muassasalari va maktablarda tasviriy faoliyatdan ta'lim berilishi diqqatga

¹² Н.В Краснов. История искусства зарубежных стран. Учебник для студентов. — Москва: Издательство, 1999. — 70 с.

¹³ Н.М Якобсон. Психология художественного творчества. Москва: Знание, 1991. — 48.

¹⁴ Б.П Юсов. Проблема художественного воспитания и развития школьников. Автореф. дис. . . . док.пед.наук. — Москва, - 32 с.

sazovor. Barcha bolalar ham juda kichik yoshligidan qo‘liga qalam yoki ruchka tushib qolsa, albatta, duch kelgan joylarga chizib ketaverishadi. Ularda tabiatan ijod qilish ehtiyoji va qiziqishi bo‘ladi. Bu sifatni rivojlantirish, shakllantirish esa pedagog-tarbiyachi va ota-onalarning burchidir. Har bir bolaning 100 xil qirradi mavjud bo‘ladi, ular qobiliyatsiz bo‘lib tug‘ilishmaydi. Ularning qobiliyatini yuzaga chiqara olish yoki chiqara olmaslik mumkin, xolos. Bu degani barcha iqtidorli, qobiliyatli degani emas. Faqatgina aqlan sog‘lom bo‘lib tug‘ilgan bolalarni nazarda tutish mumkin.

Yaponiyaning badiiy tarbiya pedagogikasida turli perseptiv harakatlarni shakllantirish asosida estetik bilimlarni rivojlantirishga katta e‘tibor beriladi. Ular bolalarni atrof-muhitga, borliqqa diqqat bilan qarashga, mahliyo bo‘lib tomosha qilishga, ba‘zan mayda-chuydalarga, lekin ajoyib xususiyatlarga ega bo‘lgan hodisalarni detallarigacha diqqat-e‘tiborni jalb qilishga o‘rgatiladi. Masalan, qotib qolgan suv tomchisini, quyoshga hamma ranglar bilan singayotgan kamalakni havas bilan, zavq bilan tomosha qilishni, shamolning esishidan barglarning shitirlashini eshitishini, yomg‘irning shov-shuvi va boshqalarni tavsiya qiladi. Bularning hammasi tabiat hodisalarini anglash jarayonida realistik asosda amalga oshiriladi. Ana shu taassurotlarning amaliy yechimi sifatida naturaga qarab rasm ishlashga katta ahamiyat beriladi. Yuqoridagi yo‘nalishlarda tasavvurlarni shakllantirish bolalarda naturadan rasm chizish uchun nazariy asos bo‘ladi.

Fransuz pedagogi P.Shokar bolalarning tasviriy ijodini rivojlantirishda qo‘l grafik ifodaning eng asosiy vosita hisoblanishini qiziqarli chizma, mundarijasini ifodalab beradi. "4 yoshdan 5 yoshgacha onalarga tegishli maktablardagi bola" kitobida bolalarni grafik ifodaga o‘rgatish zarurligini ta’kidlab, P.Shokar bu jarayonda uchta bosqichni ajratadi¹⁵. Birinchi bosqich - o‘z-o‘zidan yuzaga keladigan (tashqi ta’sirsiz) razm solish jarayonidan iborat bo‘lib, bu jarayonda pedagog bolani kuzatadi, uning tasvirlashga oid ko‘nikmalarini aniqlaydi, uning faoliyati mahsuldorligini baholab, fikr

¹⁵ Д.Н Колдина Д.Н. Лепка/Аппликация с детьми 3-4 лет.-М.: Мозаика-Синтез,2007.-35.с.

bildiradi. Ikkinchi bosqich - ishlov berish davri deb atalib, oʻzida bolaga tasvir usulini oʻrgatishni ifodalaydi. Bunda rahbarlik rolini tarbiyachi olib boradi. Faqat ana shundan keyingina uchinchi bosqich - erkin rasm chizishga oʻtiladi. Bu davrda tarbiyachi bolalarning rasm chizishdan tajribasini oshirishga harakat qiladi. Bu uch bosqichni oʻtab boʻlgach, bolalarning rasm chizishlari ijod qilishga qarab yuksaladi.

Bolalarning tasviriy faoliyatini katta yoshdagilarning nazorat qilishi, rahbarligi zarurligini AQShning bir qator olimlari (B.Djefferson, E.Kramer, E.Eysner va boshqalar) eʼtirof etdilar¹⁶. Haqiqatan ham, E.Kramer katta yoshdagilarning rahbarligi, ularning madadi, qoʻllab-quvvatlashi bolalarning umumiy rivojlanishi va ijodning gurkirashi uchun juda muhimligi haqida yozadi. Albatta, bolalarga koʻmak, dalda berib, ularga yoʻnalish koʻrsatib, faoliyatini boshqarib turish lozim.

Keyingi yillarda ayrim pedagog tarbiyachilar tomonidan maktabgacha taʼlim va tarbiya muassasalari uchun bir qancha bir-biriga bogʻliq dasturlar yaratildi. Xususan, 2004-yilda rossiyalik olimlar M.A.Vasilyev, V.V.Gerbova, T.S.Komarovalar tomonidan tayyorlangan tipovoy dastur, asosan, har tomonlama aniq vazifalar asosida topshiriqlar berishga, maktabgacha taʼlim yoshidagi barcha bolalar uchun moʻljallangan boʻlib, bolalarni maktabga tayyorlashni koʻzda tutadi¹⁷.

L.V.Kutsakova tomonidan yaratilgan «Konstruirovaniye i ruchnoy trud v detskomsadu» dasturi, asosan, bolalarning konstruktorlik qobiliyatini va tasvirlashdagi ijodiy qobiliyatlarini, har xil metodlar asosida modellashtirish va konstruksiyalash bilan tanishtirishdan iborat. Bu dastur noanʼanaviy usullar asosida turli materiallar yordamida konstruksiyalashni amalga oshirishni, unda

¹⁶ Г.В. Кузнецова Рисуем дождик. Коррекционно-развивающие занятия по обучению графическим навыкам детей 5-7 лет с проблемами в развитии средствами изобразительности. -М.: Гном-Пресс,2002.-23.с.

¹⁷ Г.В. Кузнецова Рисуем дождик. Коррекционно-развивающие занятия по обучению графическим навыкам детей 5-7 лет с проблемами в развитии средствами изобразительности. -М.: Гном-Пресс,2002.-56.с.

qog'oz, karton, qurilish, tabiiy, tashlandiq va boshqa materiallar bilan ishlashni nazarda tutgan¹⁸.

Maktabgacha ta'limning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri ta'lim mazmunini integratsiyalash asosida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash sifatini oshirish, ayni paytda bu jarayonning uzviylik prinsipi asosida kechishini ta'minlash mumkin. Zero, integrativ tarzda bolaning emotsional hissiyotiga ta'sir o'tkazish samarasini orttirish imkoniyati ortadi.

T.G.Kazakova tomonidan "Integratsiya" dasturi yaratilgan bo'lib, bunda maktabgacha yoshdagi bolalarga tasviriy faoliyatning barcha turlari asosida, ya'ni rangtasvir, qalamtasvir, haykaltaryoshlik, amaliy san'at, dizayn bo'yicha mashg'ulotlarda, asosan, integrallashtirilgan, bir butunlikda, bir-biriga bog'langan holda olib borishni nazarda tutgan¹⁹.

T.A.Kopsevaning «Priroda i xudojnik» (Tabiat va rassom) dasturi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tasviriy faoliyatining turli qirralarini atrof-muhit bilan - o'lka tabiati, me'moriy yodgorliklari, muzey eksponatlari umumiy mavzu asosidagi kompleks mashg'ulotlarning mazmunli o'tishini ta'minlaydi, bolalarni tabiatni, undagi voqea va hodisalarni, bir so'z bilan aytganda, dunyoni anglashlarini osonlashtiradi. Zero, dunyoni anglash bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning asosiy shartlaridan biridir²⁰.

Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun joriy etilgan dasturlardagi qurish-yasash mashg'ulotlari dizaynerlik g'oyalarini yechish yo'lida izlanishlar qilish uchun yetarli imkoniyat bermaydi. Shu ma'noda, T.G. Kazakova, I.A. Likova, G.N. Panteleyev, L.V. Panteleyevalar tomonidan ishlab chiqilgan dasturda an'anaviy qurish-yasash mashg'ulotlari o'rniga "Dizayn faoliyati"

¹⁸ Н.В Краснов. История искусства зарубежных стран. Учебник для студентов. — Москва: Изоискусство, 1999. — 175.с.

¹⁹ О.К Худоёрова. Ўзбекистон мактабларида тасвирий санъатдан даре самарадорлигини оширишнинг баъзи масалалари. Тошкент: ЎзТСМУ, 1995. — 20 б.

²⁰ Н.В Краснов. История искусства зарубежных стран. Учебник для студентов. — Москва: Изоискусство, 1999. — 123.с.

shaklidagi mashg'ulotlar tizimining berilishi zamon talabiga mos tushadigan yondashuv sifatida baholanishi mumkin²¹.

Y.N.Lyubimova maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga o'z ish faoliyatida ko'p yillar davomida tasvirlashning har xil noan'anaviy usullaridan, ya'ni barmoqlardan foydalangan holda rasm chizish, qo'lda ranglarni bajarib tasvirlashni tavsiya qilgan. Bunda u barmoqlar bilan chizishda bosqichlar asosida ketma-ket bajarishga intilgan. Shu tariqa ranglar bilan tanishib chiqishni ham nazarda tutgan²².

V.M.Baxterev bolalarning 2 yoshligidan qalamni to'g'ri ushlash kerakligini aytadi. 2-3 yoshli bolalarda tasviriy san'atga nisbatan qiziqish uyg'otish, bolada rasm va illustratsiyalarda tasvirlangan holat mazmuniga mos hissiy idrokni tarkib toptirish lozim. Qalam, flomaster, mo'yqalam, bo'yoq (akvarel) va loy bilan ishlashda qo'llanadigan turli harakatlarga qiziqish uyg'otish, unda qalam, flomaster, guash bo'yoq bilan chizish va bo'yash, loydan turli narsalar yasash mumkinligi haqida tasavvur uyg'otish lozim.

2-3 yoshli bolalar muayyan bir narsa tasvirini chizishga intiladilar. Sensor belgilar (rangi, hajmi, shakli)ga ko'ra narsalarni tasniflashga harakat qiladi. Shunga ko'ra, uni og'zaki ko'rsatma yoki namunaga ko'ra tasviriy faoliyat mashqiga o'rgatish lozim. Asosiy rang turlari (qizil, ko'k, sariq rang) ga va oq-qoraligiga, shakl: dumaloq, kvadrat, uchburchak, to'g'ri burchak, yassiligiga hamda hajmi katta-kichikligiga ko'ra narsalarni guruhlashga o'rgatish tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida tarkib toptiriladigan sifatlar sirasiga kiradi.

Rasm chizishda bolalarni rangli qalam, flomaster, mo'yqalamni farqlay bilishga, turli rasm va tasvirlar chizishga o'rgatish, bunda bolalar diqqatini tasviriy materiallarning qog'ozda muayyan iz qoldirishi, qog'ozda nima chizilgani, turli chiziqlar va ularning o'zaro birlashib ketishi natijasida nima tasvirlaganiga qaratish kerak bo'ladi. Bolalarni qalam yordamida egri chiziqlar,

²¹ Эмоциональное развитие дошкольника. Пособие для воспитателей детских садов. Под. ред. А. Д. Кошелевой. — Москва: Просвещение, 1985.— 145с.

²² Р.М. Боскис Глухие и слабослышащие дети. — М.: Владос, 2001 — 36 с.

doiralar, gorizontal, vertikal, uzun-qisqa chiziqlarni chizish, mazkur chiziqlar yordamida turli timsollar (qorparchalar, bayram kunlari bezak-tasmalari) ni chizishga o'rgatish kerak²³. Bolalarni chiziq va tasvirlar orqali atrof-borliqdagi mavjud hodisalarni anglash va farqlashga tarbiyachi bilan birga yoki individual yakka o'zi rasmlar "daraxt barglari to'kilmoqda", "daraxt barglaridan qurish-yasash " ishlarini amalga oshirish "daraxt butoqlarida qor", "qorli kunlarda biror tasvirni topish" kabilarni o'rgatish bolalarda kuzatuvchanlik va sinchkovlikni oshirishga zamin yaratadi.

Bolalarni dumaloq shaklli narsalar tasvirini chizishga o'rgatish, masalan, "Porloq quyosh nur sochmoqda", "Koptok yo'lka bo'ylab dumalab ketmoqda" kabi mashg'ulotlar bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, xulqi, qiziqishi va kundalik munosabatlarida anchagina jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta'lim muassasasida yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida uncha qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malaka bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtirish, o'z navbatida, bolada kechadigan moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklarsiz o'tishiga yordam beradi. Bolaning maktabga qadam qo'yayotganida nechog'liq bilimga ega ekanligi emas, uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashish ko'nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va harakat qilishi muhimroq hisoblanadi. Shuning uchun ham tasviriy faoliyat mashg'ulotlariga bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning ishonchli vositasi sifatida qarash lozim. Zero, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarni atrof-muhitni estetik o'zlashtirishga ustuvor tarzda qaraladi.

²³ Л.А.Головчин Дошкольная сурдопедагогика .— Москва: Просвещение,2009. —98 с

2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatining xususiyatlari

Kar va zaif eshituvchi bolalarning bilish faoliyati va nutqining shakllanganlik darajasi tasviriy faoliyatda aks ettiriladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar obyektni idrok qilishda, sog'lom eshitadigan bolalarga qaraganda xotirada kam belgilarni saqlab qoladilar va ajratadilar. Xotiraga tayanib rasm chizishda ular hatto ularga yaxshi tanish obyektlarda ham ularga xos qismlarni tushirib qoldiradilar, masalan, odamni tasvirlaganda – bo'yin qismi, daraxt rasmida esa shoxlari qolib ketadi va hokazo. Maktabgacha tarbiya muassasasigacha yoshdagi bolalarda asl predmetga qarab rasm chizishda, ko'pincha kuzatuvlarga emas, balki berilgan predmetlarni stereotipik usulda, maktabgacha tarbiya muassasasigacha yosh davrida o'zlashtirilgan malakalari asosida tasvirlashga harakat qiladilar.

Tayyorlov guruhi kar va zaif eshituvchi bolalar keng hajmdagi predmetlarni tekislikda tasvirlashda uzoq vaqt qiynalishadi, shu o'rinda uchinchi sinf eshitadigan tengdoshlari esa–hajmni uzatish usularidan qisman foydalanadilar, bu ikkala tasvirlash usulini ham birlashtiradi. Predmetlarni asli bilan tasvirlashda va tekshirishda o'zlashtirilgan usullar katta qiynchiliklar bilan yangi tasviriy masala sharoitida olingan bilimlarga o'tkaziladi, aniq predmetlarni tasvirlashda o'rgangan usullarini umumlashtirishga qiynalishadi.²⁴ (ularga ko'rgazmali keng bosqichma-bosqich o'qitish zarur bo'lib, har bir bosqichdagi kuzatuv va tasvir so'zli tushuntirilishi kerak)

Kuzatuv va tasvirlash usullarni o'zlashtirish asl buyumning ma'lum bo'lgan belgilarning bosqichma-bosqich ko'rgazmali tasviriy sxemaga kiritganda, bu ajratilgan belgilarning ularni ko'rgazmali sxemada tasvirlaganda, so'z bilan ifodalash va chizishni birlashtirganda muvaffaqiyatli o'zlashtiriladi. (tarbiyachilar - doskada bolalar esa rasm daftariga yoki alohida qog'oz varaqlarida).

²⁴ Л.П., Носкова Л.А Головниц. Методика развития речи дошкольников с нарушениями слуха. – М.: Владос, 2004. – 44 с.

Tayyorlov guruhi kar va zaif eshituvchi bolalarda predmetli rasm chizishda kuzatish va tasvirlash usullarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar, tasavvurlarning aniq va to'liq emasligi, bularning hammasi syujetli rasm chizish jarayonida syujetni uzatishda va uni tasvirlashdagi ifodalilik vositalarini qo'llanilishida aks etadi.

MMTMga birinchi kelgan kar va zaif eshituvchi bolalarning tasviriy faoliyatdagi, ma'lum bilim va malakalarini shakllanganligi bu faoliyatni maktabgacha tarbiya muassasasigacha davrda mutaxassis tomonidan boshqarilishiga bog'liq. Odatda bolalarida rasm chizishga munosabat o'qish faoliyatiga munosabatdagidek shakllanmagan bo'ladi. Ular mashg'ulotga kerakli jihozlarni, badiiy materiallarni olib kelishni unutadilar, mashg'ulotga oldindan tayyorlanishga harakat qilmaydilar, tarbiyachi tushuntirayotgan vaqtda chalg'iydilar, ish joyini maqsadga muvofiq tashkil etishni bilmaydilar, mehnat gigienasiga o'rgatilmaganlar (qo'l bilan cho'tkalarni artadilar, bo'yoqda chizadigan qog'ozlarini, partani, kiyimlarini iflos qiladilar).

Tayyorlov guruhi bolalarida buyumning asliga qarab rasm chiza olish malakasi shakllanmagan bo'ladi. Ular predmetga tasvirlash va tekshirish maqsadida qaramaydilar, balki shoshib bir necha marta ko'z yugurtirish bilan qoniqadilar, bu esa predmet haqida to'liq va aniq tasavvur qilishga imkon bermaydi. Rasm chizish xotiradagi buyum asliga ko'ra sodir bo'ladi.

Bunday rasm chizishda predmetni tahlil qilish tartibsiz, ketma-ket bo'lmagan, bir qarashli bo'ladi. Buning natijasida bolalar predmetning umumiy shaklini ko'ra olmaydilar, uni proporsiyasini aniqlashga ulgurmaydilar, uni tuzilish xususiyatiga tushunmaydilar, idrok etishga xos o'zaro munosabatlarni har doim ham tan olmaydilar, muhim belgilarni tushirib qoldiradilar, keraksiz narsalarni ajratadilar va ularni predmetli tasvirlashlari go'yo sodda shaklni uzatadigan sxemali rasmni eslatadi.

Tayyorlov guruhi bolalari syujetni sust qayta ishlaydilar, chunki ular obyekt ma'nosini kompozisiya mazmuniga mos tarzda birlashtirishda, fazoviy

munosabatlarni o'rnatishda katta qiyinchiliklarga duch keladi. Buning oqibatida ular alohida obyektlarni, ularga tanish sodda usullarda chizadilar.

Bolalar bo'yoqlar bilan ishlaganda odatda maktabgacha tarbiya muassasasi to'plamidagi barcha ranglarni ishlatadilar, ammo ularning ichidan eng yorqin ranglar bilan ishlashni afzal ko'radilar: qizil, sariq, yorqin yashil, to'q kul ranglar. Tayyorlov guruhi bolalari odatda bir xil ranglarni moslashtiradilar, xatoliklar faqatgina to'yintirilgan rang-bo'yoqlarda kuzatiladi (qizilni-qizg'ish sabzi rang bilan almashtiradi va hokazo), rang bo'yoqlari va turlarini nomlashda xatolikka yo'l qo'yadilar (pushti rangni-qizil, siyohrang va moviy rangni to'q ko'k deb ataydilar), rang nomlarini esa noaniq, buzib talaffuz qiladilar.

Tayyorlov guruhi bolalari o'zlarining rasmlarini odatda yorqin keng tarqalgan rangga, bo'yoqni aralashtirmasdan, palitrada turli ranglarni qidirmasdan bo'yaydilar, agar ular bunga o'rgatilmagan bo'lsalar.

Kar va zaif eshituvchi bolalar buyum asliga qarab chizganlarida bo'yoqni yorug'lik soyasiga ko'ra, uni rangini yorug'likda o'zgarishiga bog'liq ravishda ajrata olmaydilar.

Yuqorida keltirilgan xususiyatlar tayyorlov guruhi bolalari tasviriy faoliyat jarayonlarida yaqqol aks etib, boshlang'ich ta'limning so'ngigacha saqlanib qoladi va o'rta sinf bolalarida kam seziladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tasviriy faoliyatini boshqarishda, bilish jarayonlarini rivojlantirish, nutqni shakllanishini hisobga olish lozim, bu uni tayyorlov guruhiga o'tgunga qadar takomillashuvini ta'minlaydi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maxsus maktabgacha tarbiya muassasasining tayyorlov guruhi bolalariga ta'lim-tarbiya berish tizimida tasviriy san'at mashg'ulotlari muhim o'rin egallaydi. Boshqa o'quv mashg'ulotlari bilan birgalikda tasviriy san'at ham eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga korreksion rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi, bilish faoliyatini shakllantiradi. (diqqat, xotira, ko'ruv va fazoviy idroki, ko'rgazmali – obrazli tafakkur hamda ijodiy tasavvur) Nutq, badiiy madaniyat, estetik his-tuyg'ular

kabi shaxsiy sifatlar, kar va zaif eshituvchi bolalarni san'atga birlashtiradi hamda ijodiy jarayonda eshitadiganlar qatorida teng qatnashish imkoniyatini beradi.²⁵

Har bir bolaga tasviriy san'at yengil, tushunarlidir, bu esa uning xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Rasm chizishga doir jihozlar turlicha: qalam, cho'tka, bo'yoq, bo'r, qog'oz, hatto tayoqcha bilan ham qum ustiga rasm chizish mumkin. Yana tasvirni soxtalashtirgan hajmdan tayyorlash usullari bilan, odamlar qadimda loydan idishlar, taqinchoqlar, odam va hayvon shakllarini yasashgan. Bundan tashqari tasviriy faoliyat bola o'zini namoyon etishidagi eng qulay vositalaridan biridir. Bolalar o'zi o'ylagan, ularni e'tiborini tortgan narsalarni chizadilar, shu rasmlarda yashaydilar, o'zlarining munosabatlarini bildiradilar. Tasviriy faoliyatning yana bir e'tiborga molik xususiyati shundaki, u insonni mehnatgatga yaqinlashtiradi. She'r o'qish, ashula aytish hamda raqs tushganda faqat inson a'zolari, ya'ni uning ovozi, tanasi ishtirok etadi. Rasm chizish jarayonida yoki boshqa tasviriy faoliyatlarda esa nafaqat inson a'zolari balki yordamchi vositalardan – rasm uchun materiallar yoki o'lcham buyumlari, ish qurollari hamda asboblardan foydalaniladi. Masalan, loy yoki plastilinga tayoqcha yordamida kerakli shaklni berish, bo'yoqli cho'tkada bo'yash, qaychi yordamida qog'ozni qirqish.

Bu material va qurollar turli murakkab ishlarga vositachilik vazifasini o'taydi, shuning uchun bolalarni tasviriy san'at mashg'ulotida texnik malakalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zarur harakat va amallarni o'zlashtirilishi (ayniqsa umumiy va mayda harakatlar)—eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning umumiy rivojlanishidagi muhim vosita bo'lib, u hayotda kerak bo'ladigan onglilik, ziyraklilik hamda yaratuvchanlik kabi sifatlarini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchilarning kuzatishlaricha bola qanchalik qo'l bilan nozik harakat qilsa, ayniqsa barmoqlar bilan, uning nutqi va tafakkuri shuncha tez va yaxshi

²⁵ Л.П., Носкова Л.А Головниц. Методика развития речи дошкольников с нарушениями слуха. – М.: Владос, 2004. – 34 с.

rivojlanar ekan. Ma'lumki tasviriy faoliyat kinestetik sezish va barmoqlarning nozik harakati ko'ruv-harakat koordinatsiyasi mexanizmi bilan uzviy bog'liq. Tasviriy san'at mashg'uloti bolada chizish, bo'yash, kesilgan qog'oz parchalari, gazlamalardan applikatsiyalar, tayoqchalar va sim bo'laklari hamda boshqa materiallar yordamida keng va turli obrazlarni amalga oshirishga imkon yaratadi. Bunda qo'lning mayda muskullarining aniq harakati muntazam mashq asosida rivojlanib boradi. Shu bilan birga tasviriy faoliyat mashg'uloti bolalardan intizomlilik va tashkilotchilikni, jarayonni va uni bajarish ketma-ketligini mahorat bilan rejalashtirishni talab etadi.

Badiiy topshiriq qanchalik murakkab bo'lsa, uni shunchalik chuqurroq rejalashtirish talab etiladi, unda oldin nima qilish kerak, keyin nima qilish kerakligi oldindan rejalashtiriladi, chunki qilingan bitta noto'g'ri harakat, bajariladigan vazifani buzib qo'ymasligi kerak. Shuningdek, ish qurollari va materiallardan to'g'ri foydalanish kerak. Bundan tashqari tasviriy faoliyat davomida bajariladigan ishlarning natijasi vaqti uzaytirilgan, u bevosita tayyorlov operatsiyalari, taxminiy harakatlar bilan bog'langan bo'lib, u bolalardan sabr-toqat, saramjonlik, diqqatini bir joyga to'plashni, rasm yoki mahsulotni oxirigacha yetkazish qobiliyatini talab qiladi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalarda kuzatish ko'nikmasi shakllanadi, tasvirlanadigan obyektни tekshirish usullari takomillashtiriladi. Kichik maktabgacha tarbiya muassasasi yoshidagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maxsus idrok ko'nikmalarini-predmetlarni yaxlit ko'ra olish, predmetning umumiy shakli, proporsiyalari, qismlarini taqqoslay olish, fazodagi joylashuvini aniqlash, yorug'lik munosabatlarini topish va boshqa belgilarini aniqlash uchun zarur bo'lgan uni xususiyatlari birligini ko'ra olish malakalarini egallaydilar.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarda atrof-olamdagi predmet va hodisalar haqida aniq va yaxlit tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi, predmetlarni tasvirlash ongda predmetlarning mavjud belgi, shakli, hajmi, fazodagi holati va boshqa belgilarini aniq ajratishni talab etadi. Bolalar nafaqat ko'rganlarini aks ettiradilar, balki haqiqiy hayot hodisalari va predmetlar asosida

olgan tassurotlarini rasmlarda, yasash kompozitsiyalarida, yangi applikatsiyalarida yangi asarlarda aks ettiradilar. Bular tasavvur faoliyati yordamida amalga oshiriladi, uning asosini tasavvurni qayta ishlash va o'zgartirish malakasi tashkil etadi. Tasviriy faoliyat badiiy mashg'ulotning bir turi bo'lib, bunda bola reproduktiv faoliyat bilan shug'ullanmasdan, balki o'zi ijod qiladi.

Rasm chizish – bu ijodiy mehnat bo'lib, bolani fikrlash va tahlil qilishga, o'lchab ko'rish va solishtirishga, yaratish va tasavvur qilishga o'rgatadi. Tasviriy faoliyat kichik maktabgacha tarbiya muassasasi yoshidagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sensor rivojlanish – bu aqliy faoliyatning poydevori bo'lib, butun maktabgacha tarbiya muassasasi yillari davomida ko'rgazma-obrazli va ko'rgazma-harakatli tafakkur nafaqat bilishning tushuncha va kategorial shakli sifatida ishtirok etishi kerak, balki ular o'zaro uzviy aloqada bo'lishi lozim. Ma'lumki, buyuk olimlarning ijodida texnika va ishlab chiqarish ongning aqliy va badiiy shakllari bilan muvaffaqiyatli moslashtirilgan.²⁶

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalarda mashg'ulotida ko'rgazmali-amaliy faoliyatda barcha fikrlash operatsiyalari takomillashadi. Tasvirlanadigan obyektни tekshirib, ko'rib chiqishda chizuvchi ularning detallarini ajratib, tahlil qiladi, tasviriy tekislikda ushbu detallarni qabul qilib, ma'lum fazoviy qismlarni yaxlit bo'lgan munosabatlariga qarab bir butunlikda birlashtiradi, sintez qiladi, obyektни alohida detallarini o'zaro munosabatini yaxlitligiga nisbatan ko'rib chiqadi, u predmetning umumiy shakli va rangini ajratib fikran taqqoslaydi, o'zining e'tiborini faqat shu ko'rilayotgan obyektga qaratadi, boshqa belgilarini mavhumlashtiriladi, turli predmetlarning o'xshash xususiyatlari birlashtiriladi, bola ularni tasvirlashda umumlashgan usullarni ishlab chiqadi.

Ranglarni moslashtirish umumiy bo'yoqni, rangini topish bularning hammasi umumlashtirish bilan bog'liq. Bu predmetni ko'pgina o'xshash boshqa belgilaridan farqli o'ziga xos belgisini topishni rasm chizuvchi tafakkurning

²⁶ Л.А.Головниц Дошкольная сурдопедагогика .— Москва: Просвещение,2009. —108 с

aniqlashtirish operatsiyasiga asosan amalga oshiradi. Tasviriyl faoliyatda ko'rish va harakat xotirasi ham yaxshi rivojlanadi, ularning o'zaro aloqasi takomillashadi, shuning uchun tasvirlash jarayonida nafaqat qabul qilishni, balki turli chiziqchalar va har xil yo'nalishdagi chiziqchalarni o'tkazishni bilish, mo'yqalam bilan ishlash va boshqa harakatlarni egallashadi, ko'z bilan ko'rganlarini qo'l orqali aks ettirishga o'rgatiladi. Shuningdek, nimani ko'rgani qanday tasvirlaganini eslab qolishi muhim, chunki bu predmet va uni tasvirlash haqidagi tasavvurlarni xotirada saqlab qoladi.

Tasviriyl faoliyat mashg'ulotlari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda og'zaki nutq va uni eshituv-ko'ruv idrokini shakllantirish va takomillashtirish imkoniyatini beradi. Rasm chizish jarayonida bolalar bo'yoqlar bilan ishlash, applikatsiyalar yasashda badiiy materiallar va jihozlarning nomlari bilan tanishadilar (Masalan: Qalam, bo'yoqlar, mo'yqalam, qog'oz, loy va rassomlarning bo'yoq taxtachasi-palitra), bolalar tasvirlangan predmetlarning nomlarini hamda bu predmetlarning ba'zi qismlarini eslab qoladilar (Masalan: hayvonlarning boshi, tanasi, dumi, tishlari, barg, ildiz va boshqalar) tasviriyl faoliyatga bog'liq amaliyl harakatlarning nomlarini o'zlashtirib oladilar (masalan, rasm chizmoq, tasvirlamoq, yopishtirmoq, bo'yoq bilan ishlash va boshqalar) hamda fikrlash operatsiyalarini ifodalovchi so'zlar, predmet belgilari, ularga taalluqli ranglar, materiallar, holatlarni (Masalan: ko'rmoq, kuzatmoq, taqqoslamoq, umumlashtirmoq, farqlash) o'zlashtiradilar.

Tasviriyl faoliyat mashg'ulotlarida u yoki bu so'zlar, tushunchalar ustida ishlash bilan birga bolalarda nutqning talaffuz tomonini takomillashtirishga katta ahamiyat beriladi. Suhbat davomida, badiiy asarlarni va maishiy predmetlar ko'rib chiqq turib kichik maktabgacha tarbiya muassasasi yoshidagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uni ko'rkamlilikni tushunishni, u haqida gapirib berishni, san'at odamlar uchun qanday xizmat qilishini, u dunyoni qanday o'zgartirib yuborishi mumkinligini bilib oladilar. Bularning hammasi bolalarning ma'naviy tasavvurini shakllantirishga, tarixiy omillar va tarixiy obrazlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga, o'zining millati va boshqa millatlarning badiiy

ijodi namunalari bilan tanishishiga ta'sir ko'rsatadi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda eshitishi qobiliyatini, go'zallikni ko'rish va his qilishni, ajoyib, g'aroyib narsalarni saqlab qolish va ko'paytirish istaklarini rivojlantiradi.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotida bolalarda shaxsiy sifatlardan ziyraklik, tirishqoqlik, sabrli bo'lish, tengdoshlari bilan o'zaro do'stona munosabatda bo'lishni, o'zgalar tomonidan bajarilgan ishlarga nisbatan hurmatni, tabiatga, san'at asarlariga, tarixiy va madaniy yodgorliklarini asrash munosabatlari tarbiyalanadi, bolalarda estetik tuyg'u va estetik tarbiyani rivojlanadi, estetik ongni shakllantiriladi.

Bundan tashqari kichik maktabgacha tarbiya muassasasi yoshidagi bolalari bilan ishlash jarayonida erkin fikrlash, hissiy kechinmalarni qo'zg'atishni, tasavvurlarni to'planishini ta'minlovchi, zarur psixologik tenglikni yaratuvchi tasviriy faoliyat mashg'ulotlarining psixologik, psixoterapevtik tomonlarini esdan chiqarmaslik kerak.

Shunday qilib, maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida tasviriy faoliyat mashg'uloti asosiy o'quv fani sifatida badiiy bilimlar va malakalardan tashqari eshitishida nuqsoni bo'lgan kichik maktabgacha tarbiya muassasasi yoshidagi bolalarni san'atshunoslik asoslari bilan tanishtiradi, bu toifa bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishning ompensator o'llaridan biri sifatida ularni emotsional va bilish doirasini, og'zaki nutqini rivojlanishtirishda foydalaniladi.

Bolalarning ijodiy vazifalarni u bir yoki bir nechta ijodiy faoliyat tomonlarini ochib berishni ko'zda tutadi. Bunda ijodiy vazifalarni tushunarligini va ularni farqlashni u yoki bu bolaning tayyorgarligiga bog'liqligini ta'minlash zarur. Tadqiqot metodi ma'lum shakllarga ega: matnli, muammoli masalalar, malakalar va boshqalar. Faoliyat xarakteriga qarab vazifalar induktiv va deduktiv bo'lishi mumkin.

Ta'lim kar va zaif eshituvchi bolani o'zi bilim egalaganidagina rivojlantiradi, bunda aqlan faol rivojlanib boradi. Bilim tayyor holda berilmaydi, balki axborotni shunday berish tashkil etiladiki, bolalar o'zlari

mustaqil ishlashlari, kerakli yangi tushunchalar va faoliyat vositalarni o'zlashtirishlari kerak. Ta'limning ichki jarayoni izlanish, ajablanish, mulohaza yuritish, hayratlanish, argumentlarni va dalillarni izlash, xavotir bilan bog'liq. Bu o'qishga qiziqishni shakllantiradi, tashabbusni rivojlantiradi, hodisalarni ichki mazmunini, o'zaro aloqasini tushunish, jarayonlar, hodisalarni baholashga dialektik yondoshishga, muammoni ko'rish, uni yechimini topishga o'rgatadi.

Ko'rgazmali-tushuntirish va reproduktiv metodlar an'anaviy o'qitish uchun xos bo'lib, assotsiativ tafakkur va xotiraga tayanadi, u qachondir avval bo'lgan fikrlarni yangidan takrorlab mustahkamlaydi. Bu metodlar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ijodiy imkoniyatlar va qobiliyatlarni zarur darajada rivojlanishini ta'minlamaydi, ularni bilish faoliyatlarini yetarlicha faollashtirmaydi, bolalarni umumiy rivojlanishi, mustaqilligini tarbiyalashga kam ta'sir ko'rsatadi. Tasviriyl faoliyat va korreksion-rivojlantiruvchi vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda muammoli ta'lim yordam beradi, bunda bola qo'yilgan muammoli vaziyatda yangi sharoitlar bilan to'qnashadi va yangi faoliyat vositasini topishi kerak. Savol, hayratlanish, bajara olmaslik bolalarning fikrlash faoliyatlarini faollashtiradi, intellektlarini rivojlantiradi, nutqiy faolligini oshiradi. Oddiy mashq va amaliy ishlardan farqli o'laroq muammoli masala qarama-qarshilikka ega bo'lib, yechimni talab qiladi, bu amaliy masalani yechishdagi yangi sharoit, yangi talab yoki yondashuvlar bo'lishi mumkin, ammo ular o'z ichiga bola avval o'zlashtirgan keng bilimlar va shaxsiy malakalarini qamrab oladi. Muammoli masalani voqelikni hissiy idrok etish darajasiga va dunyoni idrok etish san'at fanlari uchun juda muhim. Muammoli ta'limning psixologik (ruhiy) tuzilishi o'z ichiga quyidagilarni oladi: predmet yoki hodisa haqida bilimning to'liq emasligi, ammo uni to'liq obraz sifatida tasvirlash uchun yetarliligi; intellektual imkoniyatlar; bolaning ijodiy qobiliyati.

Tasviriyl faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatleri-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam,

kelishib ishlash kabi sifatleri tarbiyalanadi. Bolalar, ishni baholash jarayonida, bolalarni o'rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo'lish to'g'ri baholash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. Tasviriyl faoliyat-bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyat hisoblanadi. Bolalarda mehnat ko'nikmalarini o'stirish, tarbiyalash kerak, faqat navbatchilik orqali ba'zi bolalarda emas, balki, har bir bolada. Tasviriyl faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgini bo'laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi-bu rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqdir. Bolalar rangni, shaklni, uning xilma-xilligini sezsa, yoki aks etsa u shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo'ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba'zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishga o'rganadilar. Ularda tasviriyl san'at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg'uni, munosabatni tarbiyalaydi. Tasviriyl faoliyat bolalarda badiiyl ijodiy o'stirishda muhim rol egallaydi. Bolaning badiiyl ijodiy o'sishi-bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo'lgan malaka, ko'nikmalarni egallash hisoblanadi. Masalan: tabiatga yoki istirohat bog'iga sayr, kuz faslida ekskursiya uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak atrofni kuzatishda kelib chiquvchi estetik his-tuyg'u orqali, tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to'g'ri baho berish, vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlerini tarbiyalash mumkin. Bolalarni o'z ishini yana ham chiroyli va yaxshi bajarish, boshqalarga yoqadigan, ular ko'rganda quvonadigan qilib yaratish-bu badiiyl, axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Maktabgacha tarbiya muassasasiga bolalarni tayyorlashda tasviriyl faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, loy, qurish materiallari bo'yicha bilim, malakalarini egallash maktabgacha tarbiya muassasasida tasviriyl faoliyat mashg'ulotlari va mehnat mashg'ulotlarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo'ladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning

ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi. Oldiga qo'yilgan vazifani hal etishda, uning asosiy va muhim hal etish yo'llarini-izlab topish bu o'quv faoliyatning asosiy sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o'z ishini nazorat qilib borish, maktabgacha tarbiya muassasasida vazifalarni bajarishda ham rol o'ynaydi. Shuningdek bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi. Maktabgacha tarbiya muassasasida: qiziqishga xohish, yangiliklarni bilishga intilish, maqsad sari intilish, tartibli holda shug'ullanish va shu kabilar. Shunday qilib, tasviriy faoliyat jarayonida olgan malakalar bolalarni maktabgacha tarbiya muassasasi hayotiga tezda kirishib ketishiga asos bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida tasviriy faoliyat bolalar bilan olib boriladigan butun ta'lim-tarbiyaviy ishning bir qismi hisoblanadi. Shu sababli u xilma-xil faoliyat va mashg'ulotlar turlari bilan bog'liq bo'lishi muhimdir. Bunga bola tasviriy faoliyatining harakterining o'zi imkoniyat yaratadi. Rasm, loy, qirqib yopishtirish ishlarida bolalar o'zlarining tevarak atrofidagi narsa hodisalar, badiiy asarlar, qo'shiqlardan olgan taassurotni aks ettiradilar. Rasm, loy, qirqib yopishtirish va qurish – yasash ishlarining boshqa mashg'ulotlari va faoliyat turlari bilan bog'likligi bolalar bilan olib boriladigan ta'lim tarbiyaviy ishning samarasini, bolalarni turli mashg'ulotlarga qiziqishni oshiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi tasviy faoliyat bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ularda turli qobiliyatlarni shakllanishi uchun xizmat qiladi. Barcha faoliyat turlarining bog'liqligi bolalarda kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, fikrlash, xayol, estetik xis tuyg'u badiiy did, shu bilan birga ahloqiy sifatlar, mehnat qilish xohishi va ko'nikmasi, boshlangan ishni oxiriga yetkazish, qiyinchiliklarni yengish xissining rivojlanishigi imkoniyat yaratadi. Bolalar bilan tasviriy mashg'ulotlarda o'tkaziladigan suhbat ularda rasm chizishga, loydan narsa yasashga qiziqishlarini uyg'otishi zarur. O'tayotgan jarayon bilan bog'liq bo'lmagan yuzaki talablar bolalarning ijodiy emotsiyalarini so'ndiradi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari jonli, emotsional, ertakli syurprizli elementlar bilan o'tilishi lozim. Ta'lim jarayonini yengil bolalar sezmaydigan qilib o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Tasviriy faoliyatning

boshqa faoliyatlar o'yin, badiiy o'qish va hikoya qilish, musiqa va xokazo bilan bog'likligini sistemali olib borish kerak. Dastavval rasm, loy qirqib yopishtirish mashg'ulotlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash zarur. Bu bolalarning estetik tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

O'z navbatida boshqa ta'lim–tarbiyaviy ish bo'lishlarining vazifalari bilan chambarchas bog'liq. Tasviriyl faoliyat mashg'ulotlarini o'tishda tarbiyachi bolalarning boshqa faoliyatlarida olgan bilimlarga tayanadi.

Bolalar tasvirlamoqchi bo'lgan predmet haqida tasavvurga ega bo'lsalar, rasm, loy, applikatsiya ishlarida samarali natijalarga erishish mumkin. Tasviriyl faoliyat turlarining bolalar o'yini bilan bog'liqligi. O'yin bola hayotida katta o'rin egallaydi. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi turli xil o'yinlar o'tkaziladi: mazmunli–rolli, dramalashtirish, didaktik va harakatli.

Har qanday o'yin bolaga zavq bag'ishlaydi. Shunday ekan, tasviriyl faoliyat ham o'yin bilan bog'lab borilsa, u bolalarga qiziqarli va yoqimli bo'ladi va emotsional javobni uyg'otadi, bu esa bolalar ishlarini sifatini yaxshi ta'sir etadi. Mashg'ulotlarda o'yinli holatlarni tashkil etish yaxshi natijalar beradi. Bolalar bunday mashg'ulotlarda erkin harakat qiladilar. O'yin usuli barcha guruhlarda qo'llaniladi. Bu usul yordamida yengil quvnoq muhit yaratadi. Bolalarning mashg'ulotga qiziqishi ortadi, tasviriyl faoliyat ko'nikma va malakalari samaralilik egallaydi. O'yin shaklida o'tadigan mashg'ulot bolalarni qamrab oladi, ularning estetik, ahloqiy jihatdan tarbiyalanishlariga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Rasm, loy, qirqib yopishtirish o'yinchoq orqali o'yin bilan bog'langan bo'ladi. O'yinchoqni chizish, yasash, qirqib–yopishtirish barcha yosh guruh bolalarida zavq uyg'otadi, o'yinchoqlarni tasvirlash bo'yicha mashg'ulotlar yil davomida bir necha o'tkazilishi mumkin. Lekin ularning shakli turlicha bo'lishi zarur. Bolaning hayotida mazmunli–rolli o'yinlar muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun tasviriyl faoliyatning o'yin bilan bog'lanishi bolalar tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Mazmunli–rolli o'yinlarni mashg'ulot mazmuniga kiritish

bolaning tasvirlash faoliyatga qiziqishini, bajarayotgan ishining sifati yaxshilaydi.

Rasm, loy, qirqib yopishtirish mashg'ulotlarining nutq o'stirish bo'yicha olib boriladigan ish bilan o'zaro bog'liqligi juda muhimdir. Nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarga ertak, hikoya o'qib berishadi, she'rlar yod oldiradilar. Bolalarda bu ishlar davomida obrazli tasavvur shakllanadi va ular ertak va she'rdagi obrazlarni o'zlaricha tasvirlab, unga nisbatan munosabatlarini bildirishga intiladilar. Bunda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari qo'l keladi, bu mashg'ulotlar davomida bundan tashqari nutq boyligini o'stiriladi, uni obrazli ifodalar boyitib boriladi.

Tasviriy faoliyat va musiqaaning uzviy bog'liqligini ham bolalarning estetik, ijodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bog'cha yoshdagi bolalarga musiqali asarni tasvirlab berishni taklif etilsa, bu taklif ularda jonli qiziqishni uyg'otadi. Bu bolalarda ijodiy izlanish, mustaqillik kompozitsiyasini tuzish qobiliyatlarini o'stiradi. Bolalarning tasviriy faoliyatlarini tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashtirib olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar tasviriy san'at namunalarini kuzatib borar ekanlar, ular rassomlarning ijodi bilan kengroq tanishib qolmay, surat chizishda mazmun, rang, shakl tanlashda muhim ko'nikmalarni egallab oladilar, san'at go'zalligini, boyligini ko'ra bilishga o'rganadilar. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim muassasasida tasviriy faoliyatni boshqa faoliyat turlari bilan qo'shib olib borish kar va zaif eshituvchi bolalar hayotini boyitadi va tarbiyaviy ish samaradorligini yanada oshiradi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari davomida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tevarak atrofidagi narsa-hodisalarni idrok etadilar, tasviriy san'at turlari bilan tanishadilar. Eng muhimi bolalarning badiiy fikr doirasi kengayadi, tasviriy san'atga nisbatan qiziqish va muhabbati tarbilanadi, ularning estetik va emotsional sezgirliklari oshadi, ahloqiy sifatleri o'sadi. Bu o'z o'rnida maktabgacha ta'lim tizimida tasviriy san'atni o'qitishda jiddiy e'tibor berilishini, ularni har tomonlama o'rgatishni, rivojlantirish yosh avlodlarga san'atning sir asrorlarini o'zlashtirish, ularning estetik didini o'stirish hamda boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimiz, umuminsoniy qadriyatlariga hurmat, Vatanga muhabbat, milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashni talab etadi. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi tasviriy faoliyat bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ularda turli qobiliyatlarni shakllanishi uchun xizmat qiladi. Barcha faoliyat turlarining bog'liqligi bolalarda kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, fikrlash, hayol, estetik xis tuyg'u badiiy did, shu bilan birga ahloqiy sifatlar, mehnat qilish xohishi va ko'nikmasi, boshlangan ishni oxiriga yetkazish, qiyinchiliklarni yengish xissining rivojlanishigi imkoniyat yaratadi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida u yoki bu so'zlar, tushunchalar ustida ishlash bilan birga bolalarda nutqning talaffuz tomonini takomillashtirishga katta ahamiyat beriladi. Milliy surdopedagogikada maxsus ta'lim sohasida maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish masalalari umumiy tarzda o'rganilgan, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirish muammolari ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganilgan, lekin maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayoni ilmiy tadqiqot obyekti bo'lmagan. Tadqiqotlarni o'rganish va ularni tahlil etish natijasida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishni o'rganish tizimli yondashishni talab qiladigan o'ta murakkab, degan xulosaga keldik. Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishning samarali shakl va usullarini izlab topish, yaratish hozirda dolzarbligi bilan muhimdir.

II BOB. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatini eksperimental o'rganish

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatini eksperimental o'rganish jarayonini tashkil etish va o'tkazish metodikasi

Biz tadqiqotimizni maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish holatini o'rganishga qaratdik. Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari amaliyotidagi ahvolini aniqlash, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish amaliyotining ish tajribalarini umumlashtirish, maqsadga muvofiq mos xulosalar chiqarishga, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishni yaxshilashga oid zarur tavsiya va takliflar berishga yordam beradi. Tasdiqlovchi eksperiment surdopedagoglar bilan suhbat, intervyu olish, ularni kuzatish, ularning shaxsiy ishlarini o'rganish jarayoniga oid materiallarni to'plashni o'zida mujassamlashtirgan dastur – anketadan iborat bo'ldi.

Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish amaliyotining bugungi holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotni tashkil etish jarayonida Y.S.Maslova tomonidan tuzilgan so'rovnoma asos sifatida olindi²⁷. Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish bo'yicha tadqiqotda anketa-so'rovnoma turidan foydalandik. Biz o'z tadqiqotimizni Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106- sonli maxsus maktab-internatining maktabgacha tarbiya bo'limida o'tkazdik. Qo'yilgan vazifalarni hal qilishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish maxsus maktabgacha tarbiya muassasasining imkoniyatlari qay holatda ekanligini o'rganish va aniqlash;
- Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga doir bilim va tasavvurlarini aniqlash;

²⁷ Е. С. Маслова Формирование изобразительной деятельности детей старшего дошкольного возраста с нарушенным слухом Автореф, дис. . . . канд.пед.наук. — Москва, 2010.-16.с.

Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106-sonli maxsus maktab-internatining maktabgacha tarbiya bo'limi surdopedagoglari bilan suhbat o'tkazildi, ilg'or defektologlarning ish tajribalari o'rganildi va umumlashtirildi. Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106-sonli maxsus maktab-internatining maktabgacha tarbiya bo'limi surdopedagoglari o'rtasida anketa-so'rovnoma tarqatildi. Olingan javoblar natijalari o'rganib chiqildi, tahlil qilindi, statistik ma'lumotlar jadval asosida ko'rsatib berildi. Ushbu savolnoma orqali maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish maxsus maktabgacha tarbiya muassasasining imkoniyatlari qay holatda ekanligi aniqlandi.

So'rovnoma maxsus maktabgacha tarbiya muassasasi surdopedagog-tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish borasidagi maxsus bilimlari qay darajada ekanligini aniqlashga qaratilgan. So'rovnoma quyidagi savollardan tashkil topgan:

Familiyangiz, ismingiz, qaysi o'quv yurtini tamomlagansiz, pedagogik stajingiz

1.Tasviriyl faoliyat eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga qanday korreksion ta'sir ko'rsatadi?

2.Bolalarda tasviriyl faoliyat jarayoniga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

3.Tasviriyl faoliyatni o'rganishga qiziqishni qanday rivojlantirish mumkin?

4.Tasviriyl faoliyatning muntazam murakkablashib borishi, bolalarda badiiy ijod samaradorligini rivojlanishini ta'minlashni qanday rivojlantirish mumkin?

5. Tasviriyl faoliyat mashg'ulotlarda qanday pedagogik texnologiyalardan foydalanasiz?

6. Tasviriyl faoliyatni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish jarayonida ota-onalar yordamidan foydalanasizmi?

Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish muammosi amaliyotining bugungi holatini o'rganish bo'yicha tadqiqot jarayonida maxsus maktabgacha tarbiya muassasasi surdopedagog-tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish sohasidagi bilimi darajasi aniqlashga

qaratilgan so'rovnoma javoblari to'liq javob berdi, qisman javob berdi, javob berishdan bosh tortgan mezonlari asosida baholandi.

Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishning holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotni tashkil etish maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyati borasidagi bilim, malaka va ko'nikmalarini aniqlash, maqsadga muvofiq mos xulosalar chiqarish, maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatni shakllantirishga oid zarur tavsiya va takliflar berish imkonini beradi. Ta'kidlovchi eksperimentimizda 106-zaif eshituvchi bolalar maktab-internatining maktabgacha tarbiya bo'limining 20 nafar tayyorlov guruhi eshitishida nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilari ishtirok etishdi. Tekshiriluvchilarning barchasi TPPKdan o'tgan bo'lib, zaif eshituvchi 1-2-3 darajasiga egadirlar. Tarbiyalanuvchilarning maxsus maktabgacha tarbiya muassasasida tarbiyalanish davrlari 2-4 yilni qamrab oladi. Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatini shakllantirishning holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotni tashkil etish jarayonida Y.S.Maslova metodikasidan foydalandik ²⁸. Ta'kidlovchi eksperimentning maqsadi maktabgacha tarbiya yoshidagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning rasm chizish jarayonlarini tadqiq etishdan iborat.

Ta'kidlovchi eksperiment to'rt turdagi topshiriqlarni qamrab oladi:

Birinchi tur topshiriq (erkin rasm chizish) eshitishida nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilarining rasm chizishga bo'lgan qiziqishlarini aniqlashga qaratilgan.

Ikkinchi tur topshiriq (bayramdan so'ng tasavvurlari bo'yicha rasm chizish) bolalarning shaxsiy hissiy idrok tajribalarini rasmlarda aks ettira olish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan.

²⁸ Е. С. Маслова Формирование изобразительной деятельности детей старшего дошкольного возраста с нарушенным слухом Автореф. дис. . . . канд.пед.наук. — Москва, 2010 .-16.с.

Uchinchi tur topshiriq (“Odam rasmi”) rasmda bolalarning o‘z tengdoshlari va kattalar bilan o‘zaro munosabatlarini aks ettirishga yo‘naltirilgan.

To‘rtinchi tur topshiriq (“Mening oilam”) esa rasmda bolalarning o‘z oilasi a‘zolari bilan o‘zaro munosabatlarini aks ettirishga yo‘naltirilgan.

Quyidagi ma’lumotlar qayd etib borildi: bolaning rasm chizishga bo‘lgan munosabati; faoliyatni tashkillashtirish xarakteri; rasmlarning mavzusi va mazmuni; rasmlarning ijtimoiy mohiyati; rasmlarni aks ettirish vositalari (rang, shakl, proporsiya, detallilik, kompozitsiya).

Rasmlarning ijtimoiy mazmunini ko‘rib chiqishda bola tomonidan o‘zini tasvirlanishi; qahramonlarning harakatlari va o‘zaro munosabatlarini aks ettirilishi; qahramonlarning hissiy holatlarini aks ettirilishi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatini eksperimental o‘rganish jarayonida quyidagilar qayd etildi: ishning taklif etilgan mavzu va ko‘rsatmalarga muvofiq kelish kelmasligi, bola o‘z ishini tugatgan–tugatmaganligi; tasvirlangan va asl predmet (natura, namuna) o‘rtasida o‘xshashlikning bor yo‘qligi; predmetning qaysi belgilari: harakterli yo kam ahamiyatli yoki har ikkalasi ham tasvirlanganligi; predmetning tuzilishi (qismlarining joylanishi) to‘g‘ri berilgan berilmaganligi; predmet qismlarining lozim joylaridagi farqlar berilgan–berilmaganligi. Bola predmetning rangini realistik bera olgan yoki bera olmaganligi. Bolaning kuzatuvchanligi, tasavvurining mahsuli haqida nimalar dalolat berayotganligi. Bolaning o‘zi tasvirlayotgan narsaga munosabati nimalarda namoyon bo‘lganligi (rasmga rangli qilib bo‘yoq berishda, o‘lchamdan foydalanishda, obrazlar dinamikasida); bolaning qog‘oz sahifalarini qanday to‘ldirganligi, bolada predmetlarning real va ma’naviy aloqalarga muvofiq keluvchi fazoviy joylashuv haqida tasavvurning bor-yo‘qligi (yonida, oraliqda, oldinda, orqasida, yuqorida, pastda va shu kabilar); bola tavsiya etilgan mavzuning mazmunini mustaqil bera olgan–olmaganligi (bu savolga javob berish uchun guruhdagi barcha bolalarning rasmlarini qiyoslash lozim bo‘ladi). Texnik malaka va ko‘nikmalarning sifati (predmet kontur to‘g‘ri tasvirlanganmi,

rasm tartibli qilib bo‘yalganmi, bola mayda detallarni tasvirida mo‘yqalamning ingichka uchidan foydalana oladimi yoki yo‘qmi, loy va plastilindan narsalar yasashda predmetning formasini to‘g‘ri belgilanganmi, yuza qismi tekislanganmi, qismlar oralig‘i mustahkam qilib biriktirilganmi, g‘adir–budur elementlari yo‘qmi, predmetning konturi to‘g‘ri qirqilganmi, predmetning qismlari to‘g‘ri yelimlanganmi) kabilarga asoslandi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriyl faoliyatini eksperimental o‘rganish quyidagi mezonlar asosida baholandi:

Topshiriqlni to‘g‘ri bajardi.

Topshiriqlni pedagog yordami asosida bajardi.

Topshiriqlni bajara olmadi.

2. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriyl faoliyatini eksperimental o‘rganish natijalari tahlili

Pedagogik amaliyotda muammo holatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriyl faoliyatini eksperimental o‘rganish o‘zida mujassamlashtirgan tadqiqotni o‘tkazishdan iborat bo‘ldi. Tadqiqotimizni Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106-sonli maxsus maktab-internatining maktabgacha tarbiya bo‘limi 20 nafar zaif eshituvchi tarbiyalanuvchilari ishtirokida o‘tkazdik. Bolalarning tibbiyl-pedagogik hujjatlaridan eshitishi darajasiga ko‘ra 1-darajali 6 nafar (30%), 2-darajali 10 nafar (50%), 3-darajali 4 nafar (20%) ekanligi aniqlandi. Eshitishini yo‘qotish sababiga ko‘ra tug‘ma 3 ta (15%), orttirilgan 5 ta (25%), dori ta’sirida 4 ta (20%), tug‘ilish davrida 3 (15%), tug‘ruqdan keyingi travmalar natijasida 5 ta (25%) nuqsonlar kelib chiqqanligi aniqlandi. Eshitishini yo‘qotgan vaqtiga ko‘ra nutqi chiqqunga qadar 10 nafar (50%), nutqi chiqqandan keyin 7 nafar (35%), maktabgacha davr mobaynida 3 nafar (15%) ekanligi aniqlandi. Tekshiriluvchilarning barchasi TPPKdan o‘tgan bo‘lib, zaif eshituvchi 1-2-3 darajasiga egadirlar.

Anamnezni o'rganish natijasida olingan ma'lumotlar

1-jadval

Bolalar soni	Eshitish darajasi			Eshitishni yo'qotish sababi					Eshitish yo'qotgan vaqti		
	1-daraja	2-daraja	3-daraja	Tug'ma	Orttirilgan	Dori ta'sirida	Tug'rug'	Tug'ruqdan keyingi travmalar	Nutqi chiqqunga qadar	Nutqi chiqqandan keyin	Maktabgacha davrda
20	6 (30%)	10 (50%)	4 (20%)	3 (15%)	5 (25%)	4 (20%)	3 (15%)	5 (25%)	10 (50%)	7 (35%)	3 (15%)

Tarbiyalanuvchilarning maxsus maktabgacha tarbiya muassasasida tarbiyalanish davrlari 2-4 yilni qamrab oladi. Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatini shakllantirishning holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotni tashkil etish jarayonida Y.S.Maslova metodikasidan foydalandik. Ta'kidlovchi eksperimentning maqsadi maktabgacha tarbiya yoshidagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning rasm chizish jarayonlarini tadqiq etishdan iborat. Ta'kidlovchi eksperiment to'rt turdagi topshiriqlarni qamrab oladi: Birinchi tur topshiriq (erkin rasm chizish) eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining rasm chizishga bo'lgan qiziqishlarini aniqlashga qaratilgan. Ikkinchi tur topshiriq (bayramdan so'ng tasavvurlari bo'yicha rasm chizish) bolalarning shaxsiy hissiy idrok tajribalarini rasmlarda aks ettira olish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Uchinchi tur topshiriq ("Mening oilam") esa rasmda bolalarning o'z tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro munosabatlarini aks ettirishga yo'naltirilgan. To'rtinchi tur topshiriq ("Mening oilam") esa rasmda bolalarning o'z oilasi a'zolari bilan o'zaro munosabatlarini aks ettirishga yo'naltirilgan.

Birinchi tur topshiriq (erkin rasm chizish) eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining rasm chizishga bo'lgan qiziqishlarini aniqlashga qaratilgan. Faoliyatga bo'lgan munosabat eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun nisbatan qiziqarli bo'lgan mashg'ulotni tanlash jarayonida aniqlandi. Ana shu maqsadda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga turli faoliyat turlarida qo'llaniluvchi jihozlar (o'yinchoqlar, qurilish materiallari, qalamlar, qog'oz, rasmlar kitoblar) taklif etildi. Ko'rsatilgan jihozlardan birortasining tanlovi bolani qiziqitiruvchi faoliyat turini o'yin, rasm chizish, qurish-yasash, kitobni tomosha qilish yoki o'qishdan birontasini ko'rsatib berar edi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning 50% o'yinchoqlarga qiziqish bildirgan bo'lsalar, 30% bolalar qalam, qog'ozlarni tanlashdi va rasm chizishga kirishishdi, juda kam foiz 20% bolalar qurish-yasashga va kitobga qiziqish bildirishdi. Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, rasm chizish faoliyati, o'yin faoliyati eshitishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun sevimli va ko'p tanlanuvchi faoliyat turi hisoblanadi.

Ikkinchi tur topshiriq (bayramdan so'ng tasavvurlari bo'yicha rasm chizish) bolalarning shaxsiy hissiy idrok tajribalarini rasmlarda aks ettira olish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Eshitishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning aksariyat qismi 30% rasm chizish faoliyatini mustaqil tashkil etish ko'nikmasiga (qalam, qog'oz tanlovi, ish joyini tayyorlash) ega bo'lib, bu borada eshitishi normal bo'lgan o'z tengdoshlaridan qolishmasdilar. Bolalar rasmlarining mavzulari va mazmuni erkin rasm chizish va tasavvur qilib rasm chizishda tahlil qilindi va quyidagi mezonlar bo'yicha baholandi: g'oyaning xarakteri; bolalar rasmlarining mavzusi va mazmuni; bolalar tasvirlarining turlari.

Bayramdan so'ng tasavvurlari bo'yicha rasm chizish jarayonida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalardagi muloqot va nutqi o'ziga xosliklarning mavjudligi sababli rasm chizish bo'yicha g'oyaning paydo bo'lgan vaqtini aniqlash murakkab jarayonga aylandi. Natijalarning ko'rsatishicha, 30% eshitishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizishdan

oldin o'z rasmlarining g'oyasini aniqlab olishdi, nutq va imo-ishoralar bilan uni bayon etishdi. Shu bilan birga aynan ularda normal eshitishiga ega bo'lgan tengdoshlariga qaraganda rasm chizish jarayonida g'oyaning o'zgartirilishi holatlari ko'p kuzatildi. G'oyaning o'zgartirilishi yoki yo'qotib qo'yilishi bolalarda nutqni boshqaruv funksiyasining yetarli darajada rivojlanmaganligidan darak beradi. Bayramdan so'ng tasavvurlari bo'yicha rasm chizishda g'oya bola faoliyati davomida amal qilishi lozim bo'lgan qoida vazifasini bajaradi, uning yo'qotilishi yoki o'zgartirilishi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar faoliyatining ixtiyoriyligining pastligidan dalolat beradi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning 30% tasviriylar faoliyat mashg'ulotlar mavzularini o'z rasmlarida namoyon etganlar. Bolalarning rasmlari turlariga ham katta ahamiyat qaratildi. Bayramdan so'ng tasavvurlari bo'yicha rasm chizish eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning 50% o'zlarining mustaqil g'oyalari bo'yicha rasmlarini qisman, xatoliklar bilan namoyish etganlar. Xususan, bolalar rasmlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning aksariyatining rasmlari alohida predmetlar rasmlaridan (qo'g'irchoq, uy, mashina) iborat bo'ladi 15%, ularning bir qismida esa 20% syujet elementlari (bir mavzu doirasidagi bir qancha obyektlarning tasviri odamning rasmsiz) chizilganligini kuzatish mumkin. Juda kam kar va zaif eshituvchi bolalar 5% o'z rasmlarida insonlarning alohida harakatlar, o'zaro munosabatlari va hissiy holatlari ifodalangan syujetli rasmlarni chizganliklari kuzatildi. Eksperimentning turli topshiriqlari doirasida chizilgan rasmlarni tahlil qilish davomida biz rasmlarning mazmunan kambag'alligini aniqladik. Hattoki syujetli rasmda ham qahramonlarning harakatlari tasvirlanmaganligi, ularning hissiy holatlari ifoda etilmaganligini ko'rish mumkin. 20% bola topshiriqni bajara olmadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning 30% tasviriylar faoliyat mashg'ulotlar mavzularini o'z rasmlarida namoyon etdilar.

Uchinchi tur topshiriq ("Odam rasmi") esa rasmda bolalarning o'z tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro munosabatlarini aks ettirishga

yoʻnaltirilgan. Tasavvur boʻyicha rasm chizishda esa eshitishida nuqsoni boʻlgan bolalarning barchasi oʻzlarini tasvirlaganlar. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktabgacha tarbiya yoshidagi 20% bolalarning rasmlarida boshqa bolalarni va kattalarni tasvirlaganlar, biroq tasvirlangan qahramonlarning barchasi orasidagi bogʻliqlikning yoʻqligi aniqlandi. 20% bola topshiriqni bajara olmadi.

Toʻrtinchi tur topshiriq “Mening oilam” rasmi bolalarning oʻz oila aʼzolari bilan oʻzaro munosabatlarini aks ettirishga yoʻnaltirilgan.

“Mening oilam”ni tasvirlash uch koʻrinishda chizildi. “Bosh-oyoq” koʻrinishida rasmlar 20%, odam tasviriga nomutasosib koʻrinishidagi rasmlar 60%, odam tasviri koʻrinishidagi rasmlar 20% tashkil etdi. “Mening oilam” esa rasmi bolalarning oila aʼzolari bilan oʻzaro munosabatlarini aks ettirishga yoʻnaltirilgan. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktabgacha tarbiya yoshidagi 20% bola ota yoki onasini tasvirlaganlar, biroq tasvirlangan qahramonlarning barchasi orasidagi bogʻliqlikning yoʻqligi aniqlandi. 20% bola topshiriqni bajara olmadi.

Shunday qilib, eksperiment natijalaridan olingan maʼlumotlar kar va zaif eshituvchi bolalarni maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida taʼlim berish jarayonida rasm chizishlari juda sekin shakllanadi va bunday oʻziga xoslikni yengib oʻtish uchun ham eshitishida nuqsoni boʻlgan maktabgacha yoshdagi bolalarning oʻziga xos taʼlimiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda psixologo-pedagogik sharoitlarni yaratilishini talab etadi.


Eshitishida nuqsoni boʻlgan bolalarni tasviriy faoliyatini eksperimental oʻrganish natijalari

2-jadval

№	Topshiriq mazmuni	Oʻquvchi soni	Topshiriqni mustaqil bajardi	Topshiriqni pedagog yordami asosida bajardi	Topshiriqni bajarmadi
1.	Eshitishida nuqsoni	20	10 (50%)	10 (50%)	

	bo'lgan tarbiyalanuvchilarni rasm chizishga bo'lgan qiziqishlarini aniqlashga qaratilgan	(100%)			
2.	Bayramdan so'ng tasavvurlari bo'yicha rasm chizish Bolalarning shaxsiy hissiy idrok tajribalarini rasmlarda aks ettirish olish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan	20(100%)	6 (30%)	10 (50%)	4 (20%)
3.	“Odam rasmi” ni chizish bolalarning o'z tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro munosabatlarini aks ettirishga yo'naltirilgan.	20 (100%)	4 (20%)	12 (60%)	4 (20%)
4.	“Mening oilam”rasmini chizish Bolalarning o'z oilasi a'zolari bilan o'zaro munosabatlarini aks ettirishga yo'naltirilgan	20 (100%)	4 (20%)	12 (60%)	4 (20%)

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatini eksperimental o'rganish ko'rsatkichlari



Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tasviriyl faoliyatni o'rganish amaliyotining bugungi holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotda anketa-so'rovnomaning turidan foydalandik. Biz o'z tadqiqotimizni Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106-sonli maxsus maktab-internatida o'tkazdik. Ushbu savolnoma orqali maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish maxsus maktabgacha tarbiya muasasasining imkoniyatlari qay holatda ekanligini aniqlandi. Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106-sonli maxsus maktab-internatining maktabgacha tarbiya bo'limida 10 ta surdopedagog va tarbiyachilar savolnomaga quyidagicha javob berdilar:

1. Tasviriyl faoliyat eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga qanday korreksion ta'sir ko'rsatadi? savoliga 8 ta surdopedagog boshqa o'quv fanlari bilan birgalikda tasviriyl san'at ham eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga korreksion rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi, bilish faoliyatini shakllantiradi. (diqqat, xotira, ko'ruv va fazoviy idroki, ko'rgazmali – obrazli tafakkur hamda ijodiy tasavvur) Nutq, badiiy madaniyat, estetik his-tuyg'ular kabi shaxsiyl sifatlar, kar va zaif eshituvchi bolalarni san'atga birlashtiradi hamda ijodiy jarayonda eshitadiganlar qatorida teng qatnashish imkoniyatini beradi deb javob berishdi. 2 ta surdopedagog Tasviriyl faoliyat nutq, badiiy madaniyat, estetik his-tuyg'ular

kabi shaxsiy sifatlar, kar va zaif eshituvchi bolalarni san'atga birlashtiradi hamda ijodiy jarayonda eshitadiganlar qatorida teng qatnashish imkoniyatini beradi deb javob berishdi.

2. Bolalarda tasviriy faoliyat jarayoniga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi? savoliga 8 ta surdopedagog bolalarda tasviriy faoliyat jarayoniga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: bular, bola ijod qilayotgan sharoit, bolaning shaxsiy xususiyatlari, iste'dodi, motivatsiyasi, badiiy ijodiyotga qiziqishi, ish materiallari, bola bilan o'zaro munosabat jarayonida kattalarga bo'lgan ishonchi, xavfsizlik munosabatlarida ishonch tuyg'usi va boshqalar deb javob berishdi. 2 ta surdopedagog bolalarda tasviriy faoliyat jarayoniga kattalar bolalarni tushunishi ta'sir ko'rsatadi: kattalar bolalarni tushunishi esa ulardagi ijod mahsulotlarini ijobiy tomonga o'zgartiradi, bolalar qiyinchilikka duch kelganlarida kattalar yordam beradilar, bolalarning nozikligini his etgan holda bola ijodining boshlanishini qo'llab-quvvatlashga tayyor turadilar. Tasviriy san'at faoliyati bolalarning eng sevimli mashg'ulotlaridan biri hamda eshitishida nuqsoni bo'lgan bola uchun korreksion rivojlanishning ahamiyati katta deb javob berishdi.

3. Tasviriy faoliyatni o'rganishga qiziqishni qanday rivojlantirish mumkin? savoliga 10 ta surdopedagog bolani tasviriy faoliyatni o'rganishga, mashg'ulot mavzulariga, ijodiy-o'quv masalalariga izlanishini rivojlantirish uchun zarur shart - badiiy ijod sharoitini yaratish lozim. Ta'limni faollashtiruvchi vositalar kompleksiga, ta'lim usulari metodlari va mazmuni, o'quv faoliyatining tashkiliy shakllari takomillashtirish talab etiladi deb javob berishdi. Agar bunga zarur bunga imkoniyatlar yaratilgan bo'lsa, qachonki bu zarurat va imkoniyat bola tomonidan tan olinsa va ularni ehtiyoj sifatida qabul qilsa bolalarning ijodiy qobiliyati izchillik bilan shakllanadi va rivojlanadi. Ijodiy-badiiy faoliyat jarayonida bolalar ma'lum bir qiyinchiliklarni yengib o'tishlari ancha muhim, bu ularda qoniqish, o'z kuchlariga ishonch tuyg'usini keltirib chiqaradi, bu esa o'z navbatida ijodiy qobiliyatga chaqiradi.

4. Tasviriyl faoliyatning muntazam murakkablashib borishi, bolalarda badiiy ijod samaradorligini rivojlanishini ta'minlashni qanday rivojlantirish mumkin? savoliga 8 ta surdopedagog bolalar uchun kompozitsion izlanishdagi qiyinchiliklar shakllarni, ranglarni, rasmda predmetlarni proporsional joylashuvini, hajmini va fazoviy joylashuvini obrazli ifodalashda ko'rinadi. Bu qiyinchiliklarni yengish uchun tasviriyl, dizaynerlik va dekorativ vazifalarni bajarishni bir-biridan ajratish zarur. Har bir mashg'ulot uchun alohida yetakchi o'quv vazifasini belgilash, bu vazifalarni mashg'ulotdan–mashg'ulotga muntazam murakkablashib borishini nazarda tutish kerak. Tasviriyl faoliyat bo'yicha o'quv materialining murakkablashib borishi, ko'nikma va malakalarning shakllanishi, har bir bosqichda bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olib amalga oshirilishi lozim deb javob berishdi. Bu savolga 2 ta surdopedagog o'quv vazifalarining mazmuni bolalarning tasviriyl faoliyat savodxonligi darajasiga mos kelishi va ularni yuksaltirish imkoniyatlarini hisobga olish kerak deb javob berishdi.

5. Tasviriyl faoliyat mashg'ulotlarda qanday pedagogik texnologiyalardan foydalanalasiz? savoliga 8 ta surdopedagog badiiy –pedagogik o'yinlardan foydalanilashi va tasviriyl san'at mashg'ulotlarida o'quv o'yinlari pedagogik va badiiy –estetik aspekt bilan qo'shib olib borilishini ta'kidladi. O'yining hamma turlariga bolalarning amaliyl faoliyatlari kiritiladi. O'yinli darslarning maqsadi – bolalarning ijodiy faoliyatini faollashtirish, ularni san'atga qiziqtirish, predmetga qiziqishini rivojlantirish, o'quv jarayonini yangi topshiriql shakllari bilan jonlantirishdan iboratdir. Asosiysi esa, bolaning emotsional doirasini rivojlantirish va dunyoni emotsional baholash munosabatini shakllantirish ko'zda tutadi deb javob berishdi. Mazkur savolga 2 ta surdopedagog tasviriyl san'at mashg'ulotlarida klaster, Aqliyl hujum kabi foydalanilashini ta'kidladi.

6. Tasviriyl faoliyatni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish jarayonida ota-onalar yordamidan foydalanasizmi? savoliga barcha surdopedagoglar tasviriyl faoliyatni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish jarayonida ota-onalar yordamidan foydalanishini, ota-ona eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tasviriyl faoliyatni

o'rganishga qiziqishni rivojlantirish jarayonida asosiy o'ringa egaligini ta'kidladilar.

Surdopedagog-tarbiyachilar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tasviriyl faoliyatni o'rganishga qiziqishni rivojlantirishda ularning pedagogik mahorati, bilimdonligi, ilg'or pedagogik texnologiya yutuqlaridan foydalanib ish olib borishi muhimligini aniqladik. Shuningdek, o'qituvchilar maxsus ta'lim muassasalarida mashg'ulotni to'g'ri tashkil qilish bo'yicha ham o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tasviriyl faoliyatni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish uchun maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi yetarli bo'lsa, kelajakda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tasviriyl faoliyatni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish darajasi ancha ortadi degan xulosaga keldilar.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatini eksperimental o'rganish bo'yicha maxsus maktabgacha tarbiya musasasasi surdopedagog va tarbiyachilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari.

3 -jadval

№	So'rovnoma savollari	To'liq javob berdi		Qisman javob berdi	
		Surdopedagoglar soni	% hisobida	Surdopedagoglar soni	% hisobida
1	Tasviriyl faoliyat eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga qanday korreksion ta'sir ko'rsatadi?	10	100%		
2	Bolalarda tasviriyl faoliyat jarayoniga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?	8	80%	2	20%
3	Tasviriyl faoliyatni o'rganishga qiziqishni qanday rivojlantirish mumkin?	10	1000%		

4	Tasviriy faoliyatning muntazam murakkablashib borishi, bolalarda badiiy ijod samradorligini rivojlanishini ta'minlashni qanday rivojlantirish mukkin?	8	80%	2	20%
5	Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarda qanday pedagogik texnologiyalardan foydalanilasiz?	8	80%	2	20%
6	Tasviriy faoliyatni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish jarayonida ota-onalar yordamidan foydalanilasizmi?	10	100%		

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida amaliyotidagi ahvolini aniqlash, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish amaliyotining ish tajribalarini umumlashtirish, maqsadga muvofiq mos xulosalar chiqarishga, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishni yaxshilashga oid zarur tavsiya va takliflar berishga yordam beradi. Tasdiqlovchi eksperiment surdopedagoglar bilan suhbat, ularni kuzatish, ularning shaxsiy ishlarini o'rganish jarayoniga oid materiallarni to'plashni o'zida mujassamlashtirgan dastur–anketadan iborat bo'ldi. Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish amaliyotining bugungi holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotni tashkil etish jarayonida Y.S.Maslova tomonidan tuzilgan so'rovnoma asos sifatida olindi. Surdopedagog-tarbiyachilar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tasviriy faoliyatni o'rganishga pedagogik mahorati, bilimdonligi, pedagogik texnologiya yutuqlaridan foydalanib ish olib borishi muhimligini aniqladik. Shuningdek, o'qituvchilar maxsus ta'lim muassasalarida mashg'ulotni to'g'ri tashkil qilish bo'yicha ham o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tasviriy faoliyatni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish uchun muassasalarning moddiy-texnik bazasi yetarli bo'lsa, kelajakda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tasviriy faoliyatni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish darajasi ancha ortadi degan xulosaga keldilar. Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, rasm chizish faoliyati o'yin faoliyati kabi ham eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun sevimli va ko'p tanlanuvchi faoliyat turi hisoblanadi. Eksperiment natijalaridan olingan ma'lumotlar kar va zaif eshituvchi bolalarni maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'lim berish jarayonida rasm chizishlari juda sekin shakllanganligi dalillandi. Shu sababli eshitishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyatga o'rgatishda o'ziga xos ta'limiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda psixologo-pedagogik sharoitlarni yaratilishini talab etiladi.

III BOB. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish pedagogik shart-sharoitlari

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish bo'yicha korreksion pedagogik ishlar mazmuni

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish tizimini ishlab chiqishga umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va tasviriyl faoliyat predmetidan yozilgan o'quv dasturi, rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari, hamda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish yuzasidan yozgan dasturimiz asos bo'lib xizmat qildi. Quyida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish bo'yicha dastur mazmuni yoritiladi:

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish bo'yicha dastur

Tasviriyl faoliyat har bir bola hayotida muhim o'rin tutib, unga olamni anglash, uni ko'ra bilish, hamda xis etish imkonini beradi.

Eshitishida kamchiligi bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasida ham ushbu faoliyatning tutgan o'rni beqiyos bo'lib, tasviriyl faoliyatga o'rgatish zamirida bolalarga olamni yangicha ko'ra bilish va anglashga o'rgatish yotadi. Eng birinchi va salmoqli qadam- bu bolani rasm, qurilma va applikasiyaning real obyektlarning tasviri ekanligini tushunishga, ularni o'zaro «o'xshata olish»ga o'rgatishdan qo'yiladi. Chunki, eshitishida muammoga ega bo'lgan kichkintoy ko'z oldida tasvirlangan predmetni «taniy bilishi» lozim. Bolalar predmetlar hajmini va shaklini, ularning fazoviy joylashuvini aniqlay olmaydilar. Aynan ana shu muammolarni bartaraf etish barcha ta'lim yillari davomida o'z yechimini topishi lozim.

Eshitishida kamchiligi bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatishning asosiy vazifalaridan biri bu doimiy va izchil ravishda so'z ortidan real predmet, hodisani ko'ra bilishga o'rgatishdir. So'z bola orttirgan xissiy tajribani umumlashtirishi, to'ldirishi lozim.

Ushbu dastur tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligi (2013)ning “Eshitishda kamchiligi bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiyasi dasturi” va O‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi vazirligi maktabgacha ta’lim muassasalar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish respublika o‘quv-metodika markazi “Bolajon” asosida ishlab chiqilgan. U yuqorida qayd etilgan dasturlar kabi eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bog‘chasida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o‘rgatishga mo‘ljallangan.

Butun o‘quv yili davomida tasviriyl faoliyat mashg‘ulotlari haftasiga 2 marta olib boriladi. Mazkur dasturda yangi pedagogik texnologiyalar keng qo‘llanilgan.

O‘quv yili shartli ravishda 3 davrga bo‘linadi:

Ta’limning 1-davri: sentabr, oktabr, noyabr

Ta’limning 2-davri: dekabr, yanvar, fevral

Ta’limning 3-davri: mart, aprel, may

Ishning asosiy mazmuni

O‘qitishning 1-davri

Sentabr, oktabr, noyabr

Naturadan va tasavvur asosida “Ranglar olamiga sayohat”, “Qumdagi rasmlar”, “Butadagi mevalar”, “Daraxtlar ko‘lga qarab turibdi”, “So‘zlovchi buloq”, “Men otam bilan birgaman”, “Oltin bulutlar”, “Yomg‘ir va chaqmoq”, “Biz onam bilan bir- birimizga tabassum qilamiz”; Individual natura, individual matn asosida va nazorat mashg‘ulotlari. “Qoqio‘t va jo‘ja” mavzusida jamoa ishi. Kuzgi tabiat ko‘rinishi tasvirlangan rasmlarni tomosha qilish.

O‘qitishning 2-davri

dekabr Yanvar fevral,

Naturadan va shu mashg‘ulotdayoq “Ajoyib mozaika”, “Qo‘lqop”, “Bizning archamiz”, «Akvarium», «Ixtiyoriyl rasm»; individual natura, individual matn asosida tanish shakldagi predmetlarni; “Bo‘g‘irsoq yo‘lka bo‘ylab dumalab ketayapti”, «Oltin baliq ertagi» ertagi asosida ijodiy ish;

dekorativ rasm chizish. Xalq amaliy san'ati namunalarini ko'rib chiqish (rasm, so'zana, palaklar). Nazorat ishi.

O'qitishning 3-davridagi asosiy ish mazmuni mart, aprel, may

Naturadan «Chiroyli quyosh», «Kamalak», «Qo'g'irchoq uchun dastro'molcha bezaymiz»; namuna va tasavvur asosida «Bahorgi daraxt», «Bahor gullari», «Bahorgi osmon»; «Navro'z» ijodiy ishi. Dekorativ rasm: «Onam uchun guldasta», «Atlas ko'ylak», «Ayiqcha uchun qalpoqcha»; «Go'zal bahor» jamoa ishi.

Ta'limiy tadqiqotda 12 ta mashg'ulot olib borildi.

Hafta	Mashg'ulot mavzusi	Mashg'ulotning maqsadi	Ta'lim texnologiyalari
SENTABR			
1-hafta	“Ranglar olamiga sayohat”	Tabiatda uchraydigan ranglar haqidagi mavjud bilimlarini mustahkamlash, ayrim ranglarni hosil qilish usullarini o'rgatish, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish	“7 qadam” texnologiyasi
2-hafta	“Qumdagi rasmlar”	Tasavvur bo'yicha rasm chizishga o'rgatish. Tasvir yaratishda mustaqil ravishda yangi usul-qumli rasmlarni yaratish usulidan foydalanishga o'rgatish.	Qumli rasmlarni yaratish texnologiyasi
3-hafta	“Butadagi mevalar”	Ritmik kompozitsiyani hosil qilish. Tasviriy texnika vositalaridan foydalanish, shoxchalarni qalam bilan, mevalarni paxtali tayoqchalar bilan chizish	Paxtali tayoqchalar texnologiyasi
4-hafta	“Daraxtlar ko'lga qarab turibdi”	Bolalarni rasm solishning yangi usuli (aks ta'sir) rasmni aks ta'sir usuli orqali ifodalashni o'rgatish (monotipiya, izlar)	Aks ta'sir texnologiyasi
OKTABR			
1-hafta	“So'zlovchi buloq”	Yangi tasviriy jihoz- rangli mel bilan ishlash imkoniyatlari bilan tanishtirish Uning uchli tarafi bilan (shrtixlash)ni, (bo'yash)ni egallash	Rangli mel texnologiyasi
2-hafta	“Qoqio't va	Rangli fonda bir xil shakldagi	Paxtali tayoqchalar

	jo‘ja”	narsalardan kompozitsiya tuzish. Jo‘ja va qoqio‘tni noan’anaviy usulda rasmini chizish (barmoqlar, paxtali tayoqcha, mato bilan qoqio‘tni rasmini chizish. Badiiy jihozlar bilan tajriba o‘tkazish imkonini berish. Kerakli tasviriy faoliyat orqali tabiatga bo‘lgan qiziqishni tarbiyalash)	texnologiyasi
3-hafta	“Men otam bilan birgaman”	Portret rasmini chizish, tashqi ko‘rinishdagi o‘ziga xos xususiyatlarini va kayfiyatini tasvirlash	Tasavvuriga asosan rasm chizish
4-hafta	“Oltin bulutlar”	Yangi badiiy jihoz bilan tanishtirishda davom etish. Yangi rangli noyob narsalarni ifodalash.	Rangli mel texnologiyasi
NOYABR			
1-hafta	“Biz onam bilan bir-birimizga tabassum qilamiz”	(O‘zi va onasining) tashqi ko‘rinishi, xususiyatlari va quvnoq kayfiyati tasvirlangan rasmini chizish	Tasavvuriga asosan rasm chizish
2-hafta	“Ajoyib mozaika”	Ko‘p rangli kompozitsiya yaratishda dekorativ jihozlash texnikasi bilan tanishish	Dekorativ rasm chizish (Modulli)
3-hafta	“Bo‘g‘irsoq yo‘lka bo‘ylab dumalab ketayapti”	“Bo‘g‘irsoq” ertagi asosida rasm chizish. Bo‘g‘irsoq obrazini tasvirlashda aylana yoki oval shaklidan, yo‘lkachani tasvirlashda to‘lqinsimon va ilmoqli chiziqlardan foydalanish. Mustaqil ravishda chiziq, shakl, rang kabi tasviriy vositalardan foydalanish.	Namuna asosida rasm chizish
4-hafta	“Qo‘lqop”	“Qo‘lqopni” tasvirlash va bezatish qo‘l kaftlarini qo‘l va qalam bilan bir xil masofada qo‘lni uzmasdan bir tekisda chizib chiqish Ornament hosil qilish (qo‘lqopdagi naqshlar)	Applikatsiya elementlari texnologiyasi

Quyida eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish bo‘yicha “7 qadam” texnologiyasi, “Qumli rasmlar” texnologiyasi, Paxtali tayoqchalar texnologiyasi, Aks ta’sir texnologiyasi, Rangli mel texnologiyasi,

Assimetrik texnologiyasi, Applikasiya elementlari texnologiyasi, 3x4 texnologiya, Tushunchalar tahlili, Toifalash, Aql hujum, VENN diagrammasi, Zig-zag, Gugurt cho‘pi, Kubik, «Mozaika», Tasdiqlar, Bingo texnologiyalari kabi pedagogik texnologiyalarga asoslangan mashg‘ulot ishlanmalaridan namunalar berildi:

Mashg‘ulot: Rasm

Mavzu: Ranglar olamiga sayohat

Ta’limiy maqsad: Tabiatda uchraydigan ranglar haqidagi mavjud bilimlarini mustahkamlash, ayrim ranglarni hosil qilish usullarini o‘rgatish, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Tarbiyaviy maqsad: Mashg‘ulot davomida gavdani tutib o‘tirish, atrofdagilarni fikrini hurmat qilishga, o‘ng qo‘l qoidasiga rioya qilishga o‘rgatish

Korreksion maqsad: Qo‘l motorikalarini rivojlantirish, mo‘yqalamdan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish, ranglarni farqlashga o‘rgatish.

Qo‘llaniladigan usullar: motivatsiya, suhbat, savol-javob, “7 qadam”, “Aqliy hujum”

Lug‘at: oq qog‘oz, mo‘yqalam, bo‘yoq, qizil, sariq, yashil, qora, oq, jigarrang, kuz

Kerakli jihozlar: rangli qalamlar, guash, akvarel, tabiat manzarasi, jo‘ja, bulut, yong‘oq, ko‘mir rasmi

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism

- Salomlashish
- Artikulyatsion mashqlar

II. Asosiy qism

1-qadam

Motivatsiya hosil qilish. Bu usul taxminan quyidagi tartibda amalga oshiriladi: tarbiyachi turli rasmlar, kartochkalarni birma-bir ko‘rsatib, bolalardan ularda qanday ranglardan foydalanilgani haqida so‘raydi.

- Qarang bulut pahmoqqa,

Uni bo'yaymiz oqqa.
— Jo'ja yeydi to'q tariq,
Shu bois rangi sariq.

2-qadam

“Aqliy hujum” texnologiyasi orqali tarbiyachi qalamlarning orasidan yashil ranglisini olib qo'yadi va qolgan qalamlarning rangini bolalar yordamida aniqlaydi. Bolalar qalamlar orasida yashil rang yo'qligini topganlaridan so'ng: “Endi o't-o'lanlarni, barglarni bo'yash uchun nima qilamiz?” deydi.

Motivatsiya samara beradi, ya'ni bolalar bu muammoning yechimini topishga harakat qilib, turli javoblarni beradilar. Tarbiyachi sariq va ko'k ranglarni qo'shib, yashil rangni hosil qiladi. Yoki qizil va sariq ranglarni qo'shish orqali zarg'aldoq rang hosil qilinadi.

3-qadam

Bolalarga deyarli barcha ranglar ishtirok etgan rasm ko'rsatiladi. Manzarani tasvirlashda ishlatilgan ranglarga e'tibor qaratiladi.

Lolaxon mohir rassom,
Rasm chizibdi qarang.
Yaratibdi mo'jiza,
Unda mavjud barcha rang.
Shu tariqa rasmda ishlatilgan ranglar birma-bir aytib o'tiladi.

4-qadam

Bolalarga turli rangdagi moybo'yoq, akvarel bo'yog'i beriladi va ular qog'ozda mashq qilib, turli yangi ranglarni paydo qilishga harakat qiladilar.

5-qadam

Klyaksografiya usulida amaliy ish bajariladi, ya'ni tarbiyachi qizil, sariq, yashil, ko'k, malla (jigarrang) ranglardan qog'ozlarga kam miqdorda to'kib, turli dog'lar hosil qiladi. Bolalar ularning shakliga ayrim qo'shimchalar kiritib, ranglarga mos ravishda tasavvurlaridagi narsa-buyumni chizadilar.

Jismoniy daqiqa

Tarvuzimiz oq chiqdi

Nima bo'ldi buyog'i,
 Tabiatning yetmagan,
 Balki qizil bo'yog'i.

III. Mustahkamlash. “Bingo” strategiyasi

Tinchlik ma'nosini bildiradi	Qish ziynati	Issiq rang
Bahor fasli burkanadi	Oq yo'l tilaydi	O't-o'lanlar
Olcha rangi	Tomirimizdagi qonimiz	Ta'qiqlaydi

IV. Mashg'ulotni yakunlash

6-qadam

Ish tugagach, tarbiyachi bolalarning ijodiy ishlarini tekshirib, baholaydi va ular asosida kichik ko'rgazma tashkil etadi.

7-qadam

Bolalar mashg'ulotda faol ishtirok etgani uchun rag'batlantiriladi.

Mashg'ulot: Rasm

Mavzu: “Qumdagi rasmlar”

Ta'limiy maqsad: Tasavvur bo'yicha rasm chizishga o'rgatish. Tasvir yaratishda mustaqil ravishda yangi usul-qumli rasmlarni yaratish usulidan foydalanishga o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: Mashg'ulot davomida gavnani tutib o'tirish, atrofdagilarni fikrini hurmat qilishga, o'ng qo'l qoidasiga rioya qilishga o'rgatish

Korreksion maqsad: Qo'l motorikalarini rivojlantirish, mo'yqalamdan to'g'ri foydalanishni o'rgatish, ranglarni farqlashga o'rgatish.

Qo'llaniladigan usullar: qumli rasmlarni yaratish usuli, “Venn diagrammasi”, 3x4 texnologiyasi

Lug'at: oq qog'oz, mo'yqalam, bo'yoq, gul, kapalak, kema

Kerakli jihozlar: qog‘ozda rasm chizish uchun –sariq, och sariq, och sut rangdagi turli hajmdagi qog‘ozlar, rangli qalamlar, flomasterlar. “Qumli” rasmlar uchun- mayda yashiklarda toza qum yoki quruq manniy yormasi, PVA yelimi va yelimlash uchun mo‘yqalam


Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism

- Salomlashish
- Artikulyatsion mashqlar


II. Asosiy qism

-Biz bugun sizlar bilan olma rasmini noan’anaviy usulda chizamiz. Olma chizishdan avval olma haqida gaplashib olamiz. (Venn diagrammasi)



“Qumli rasmlar” yaratilishining yangi uslubi ko‘rsatiladi. Avvaliga tarbiyachi qutichada sepilgan qum yoki manniy yormasiga bolalarning diqqatini qaratadi. Qumda asosan qo‘l yoki tayoqcha bilan rasm chizish mumkinligini aytadi, yana noyob usul- bu qumli rasmlarni qog‘oz va yelim orqali yaratish mumkinligini aytadi. Tarbiyachi qog‘oz olib, uni doskaga yopishtiradi, flomaster yoki qalam bilan oddiy rasmni chizadi (masalan, olma), so‘ngra hamma chiziqlar bo‘ylab yelim bilan surtib chiqadi va hamma rasmni qumli yoki manniy yormasi bor yashikka o‘giradi (rasmlari past tarafda turishi lozim). Yengilgina qog‘ozga tapillatib ko‘radi, rasmni ko‘taradi va “Qumli rasmlarni” ko‘rsatadi. Yelim bilan faqat chiziqlarni emas, balki yirik narsalarni (olmaning bargini surtib chiqish mumkin). Bolalar qum va manniy yormasi joylashtirilgan

yashiklar yonida yangi usulni qoʻllaydilar. Bunda bolalar qumni tasvirdagi yelim ustiga astagina qoʻllari bilan sepib chiqishlari ham mumkin.



Qumdagi rasmlar

Jismoniy daqiqa

Qoʻllarimiz osmonda,
Chapak-chapak chalamiz.
Oyoqlarimiz yerda,
Top, top, tepar top.

III. Mustahkamlash. 3x4 texnologiyasi

Olma-bu...		Olma-bu...
Olma-bu...		Olma-bu...

IV. Mashgʻulotni yakunlash

Ish tugagach, tarbiyachi bolalarning ijodiy ishlarini tekshirib, baholaydi va ular asosida kichik koʻrgazma tashkil etadi.

Bolalar mashgʻulotda faol ishtirok etgani uchun ragʻbatlantiriladi.

Mashgʻulot: Rasm

Mavzu: Daraxtlar koʻlga qarab turibdi

Taʼlimiy maqsad: Bolalarni rasm chizishning yangi usuli ikki yoqlama tasvirlash. (Koʻzgudagidek simmetrik koʻrinish) bilan tanishtirish (monotipiya va tangʻa bosish). Akvarel boʻyoq bilan rasm chizish malakasi bilan

takomillashtirish. Bolalar tasviriy faoliyatida ijodiy tasvirlash vositalari sifatida tang'a bosish yo'li orqali rasm chizish imkoniyatini kengaytirish. Bolalarni rangli kompozitsiya tuzishga o'rgatish va shu orqali tasviriy vositalar orqali o'z taassurotlarini ifoda etish. Tabiatni anglashga va o'z taassurotlarini tasviriy faoliyatda aks ettirishga o'rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: Mashg'ulot davomida gavnani tutib o'tirish, atrofdagilarni fikrini hurmat qilishga, o'ng qo'l qoidasiga rioya qilishga o'rgatish

Korreksion maqsad: Qo'l motorikalarini rivojlantirish, mo'yqalamdan to'g'ri foydalanishni o'rgatish, ranglarni farqlashga o'rgatish.

Qo'llaniladigan usullar: Simmetrik aks ettirish orqali rasm chizish

Lug'at: oq qog'oz, mo'yqalam, bo'yoq, daraxt, suv, aks, yashil, qizil, ko'l, turibdi

Kerakli jihozlar: Turli hajmdagi va kattalikdagi oq rangdagi qog'oz, akvarel bo'yoqlari, flomasterlar yoki rangli qog'ozlar, turli hajmdagi mo'yqalamlar, suvli bankachalar, mato bo'laklari.

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism

- Salomlashish
- Artikulyatsion mashqlar

II. Asosiy qism


- O'tgan mashg'ulotimizda nimani rasmini chizgandik?
- To'g'ri. Bugun daraxtlar haqida suhbatlashamiz va rasmini chizamiz.

Toifalash	
Mevali daraxtlar	Manzarali daraxtlar

Tarbiyachi bolalarga daraxtlar “suvga qarab turganliklarini” tasvirini chizib berishni va noyob kuzgi rasmlar asosida ko‘rgazma tashkil qilishni taklif qiladi. Tarbiyachi bolalardan qirg‘oqda turgan daraxtlar suvga qarab turgan aksini chizib berishni. Bolalar o‘zlarining daraxt to‘g‘risidagi tasavvurlarini gapirib beradilar. Tarbiyachi barglari ko‘p daraxtning ko‘zgudagi aksini ko‘rsatadi va bolalarga bu tasvirni tasvirlashning yangi usulini o‘rganib olishni taklif qiladi.

- Buning uchun oq rangdagi qog‘ozni olib, ikkiga bukamiz, bukilgan chiziqni aniqlab olib, qog‘ozni ochamiz va tezda, ammo tartib bilan qog‘ozni ho‘llab olamiz (bolalar xohishiga ko‘ra, mato bilan, latta bilan, mo‘yqalam yoki kaft bilan). Qog‘ozni shunday joylashtiramizki, bukilgan chiziq ufq chizig‘i kabi joylashishi lozim: bu chiziqning yuqori qismi osmon, pastki qismi suv- ko‘l, daryocha yoki ko‘lmak va ariq singari ifodalanishi lozim.

Mo‘yqalamni ikki turini tanlab olamiz va tezda daraxtni xo‘l qog‘ozning tepa qismiga rasm chizamiz: tanasini qalin- qanday mo‘yqalamdan foydalanish lozimligini ko‘rsating; shoxlarini- ingichka- qasi mo‘yqalamdan foydalanish lozimligini ko‘rsating. Tezda osmon daraxtni suvga sho‘ng‘ishi uchun ikkiga buklaymiz; qog‘ozni ochamiz va ikkita daraxtni ko‘ramiz: bitta daraxt qirg‘oqda turibdi va osmonga qarayapti, boshqasi suvda aks etayapganligini ko‘rish mumkin. Tushuntirishdan va ko‘rsatilganidan so‘ng pedagog bolalarga qog‘oz tanlab, qog‘ozni vertikal bo‘ylab joylashtirishni, shundagina rasm uzunasiga chiqishini aytadi. Bolalar jihozlarni, turli hajmdagi mo‘yqalamlarni tanlab oladilar va rasm chizishni boshlaydilar. Tarbiyachi qog‘ozni ho‘llab tezda daraxt rasmini chizishni taklif qiladi, ammo tartib bilan rasm chizishni gapiradi, chunki agar qog‘oz ho‘l bo‘lmasa, aks ta’sir tushmasligi mumkinligini aytadi.



Daraxtlar suvga qarab turibdi

Jismoniy daqiqa

1 – 2 boshni ko‘tar,
3 – 4 qo‘lni yonga keltir,
5 – 6 sekin o‘tir, o‘tirib dam olamiz,
Mashg‘ulotga tayyorlanamiz.

III. Mustahkamlash.

“Kubik”

Kubikning har bir tomoni muayyan topshiriqni ifodalaydi:

- ✓ Bu nima? (Daraxt)
- ✓ Rangi qanday? (Yashil)
- ✓ Qayerda o‘sadi? (O‘rmonda)
- ✓ Qanday turlari bor? (Ko‘p yillik va bir yillik)

IV. Mashg‘ulotni yakunlash

Ish tugagach, tarbiyachi bolalarning ijodiy ishlarini tekshirib, baholaydi va ular asosida kichik ko‘rgazma tashkil etadi.

Bolalar mashg‘ulotda faol ishtirok etgani uchun rag‘batlantiriladi.

Mashg‘ulot: Rasm

Mavzu: “Jo‘ja va qoqio‘t”

Ta'limiy maqsad: Rangli fonda bir xil shakllarni monoxromli tasvirini yaratish. Modulli rasm solish imkoniyatini yaratish- jo'ja va qoqio't rasmini barmoq, tayoqcha, mato bilan botirib olish yo'li bilan hosil qilishga o'rgatish Tasviriy faoliyat orqali rang, shakl, kompozitsiya tuzish xissini taraqqiy ettirish, tabiatning chiroyli manzaralarini aks ettirishga qiziqish uyg'otish.

Tarbiyaviy maqsad: Mashg'ulot davomida gavdani tutib o'tirish, atrofdagilarni fikrini hurmat qilishga, o'ng qo'l qoidasiga rioya qilishga o'rgatish

Korreksion maqsad: Qo'l motorikalarini rivojlantirish, mo'yqalamdan to'g'ri foydalanishni o'rgatish, ranglarni farqlashga o'rgatish.

Qo'llaniladigan usullar: paxtali tayoqcha texnologiyasi, kubik, 3x4 texnologiyasi

Lug'at: oq qog'oz, mo'yqalam, bo'yoq, jo'ja, sariq, qoqio't, gul

Kerakli jihozlar: Jamoa bo'lib ishlash uchun yashil fonli qog'oz. Uchiga paxta o'ralgan tayoqchalar, paxta tamponlari, (bosib olish uchun) salfetaklar, sariq rangli bo'yoq, flomasterlar, matoli va qog'oz salfetaklar.

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism

- Salomlashish
- Artikulyatsion mashqlar

II. Asosiy qism

“Kubik”

Kubikning har bir tomoni muayyan topshiriqni ifodalaydi:


- ✓ Bu nima? (Jo'ja)
- ✓ Rangi qanday? (Sariq)
- ✓ Nima bilan oziqlanadi? (Don)
- ✓ Qayerda yashaydi? (Xonadonda)

Tarbiyachi bolalarga birgalikda momiq jo'ja va sariq qoqio't to'g'risida rasm solishni taklif etadi.

- qog'oz salfetakni g'ijimlab bo'yoqqa botiradi va bosish yo'li bilan bo'yoqli dog' paydo qiladi.

- mato salftkani olib g'ijimlaydi va shu tariqa bo'yoqli dog' qoldiradi.
- uchiga paxta o'ralgan tayoqchani olib uni bo'yoqqa botiradi va oval shaklidagi momiq shaklni kichik- kichik dog'lar yordamida hosil qiladi.
- bo'yoqqa ko'rsatgich barmoqni botiradi va ko'p marta uni bosib olish yo'li bilan aylana yoki oval shaklini hosil qiladi.
- flomaster yordamida qoqio't uchun shoxcha va barglar, jo'ja uchun oyoqchalar va tumshug'ini chizishni taklif etadi.

Bolalar o'z xohishlariga ko'ra momiq jo'ja va qoqio'tni rasmini sola boshlaydilar. Bolalarning ichida ba'zilar jo'jani ba'zilar qoqio'tni rasmini solishga harakat qilishadi.



“Jo'ja va qoqi o't” rasmi

Jismoniy daqiqa

Loladek qip - qizilman,
Bog'ning erka qiziman,
Donlarim marjon - marjon, shirin,
Achchiq va nordon.

III. Mustahkamlash.

3x4 texnologiya

Qoqio't-bu...		Qoqio't-bu...
Qoqio't-bu...		Qoqio't-bu...

IV. Mashg‘ulotni yakunlash

Ish tugagach, tarbiyachi bolalarning ijodiy ishlarini tekshirib, baholaydi va ular asosida kichik ko‘rgazma tashkil etadi.

Bolalar mashg‘ulotda faol ishtirok etgani uchun rag‘batlantiriladi.

Mashg‘ulot: Rasm

Mavzu: “Biz onam bilan tabassum qilayapmiz”

Ta’limiy maqsad: Juftlikdagi portret rasmini chizish, aniq odamlarning tashqi ko‘rinishini, xususiyatlarini va kayfiyatini ko‘rsatish (o‘zini va onasini). Obrazni to‘liq, aniq, chiroyli va shaxsiy ochib berish uchun tasviri- ifodali tasvirlash izlashga nisbatan qiziqish uyg‘otish. Tasviriy san’at turi (portret) bilan tanishtirishda davom qilish.

Tarbiyaviy maqsad: Mashg‘ulot davomida g‘avdani tutib o‘tirish, atrofdagilarni fikrini hurmat qilishga, o‘ng qo‘l qoidasiga rioya qilishga o‘rgatish

Korreksion maqsad: Qo‘l motorikalarini rivojlantirish, mo‘yqalamdan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish, ranglarni farqlashga o‘rgatish.

Qo‘llaniladigan usullar: Tasavvuriga asosan rasm chizish, mozaika, tushunchalar tahlili

Lug‘at: oq qog‘oz, mo‘yqalam, bo‘yoq, yuz, ko‘z, quloq, qosh, soch, kiprik, lab

Kerakli jihozlar: Oq va turli ranglar bilan botirilgan qog‘oz, guash bo‘yoqlari, palitralar, mo‘yqalamlar, suvli banka; oilaviy rasmlar; taniqli rasomlarning asarlari, ish jarayoni yorituvchi tayanch rasmlar; turli rangdagi tana rangini hosil qilish uchun lozim bo‘lgan ranglar modeli (to‘yintirilgan).

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism

— Salomlashish

— Artikulyatsion mashqlar

II. Asosiy qism



— Bugun sizlar bilan onamiz portretini chizamiz. Chizishdan avval portretga berilgan yuz a‘zolarini mazmuni bilan tanishib olsak.


Tushuncha	Mazmuni
Quloq	Eshitish a'osi
Ko'z	Ko'rish a'zosi
Burun	Hid bilish a'zosi
Og'iz bo'shlig'i	Ta'm bilish a'zosi

Tarbiyachi bolalarga guash bo'yoqlari bilan "Biz onam bilan tabassum qilayapmiz" mavzusida katta chiroyli portretlarni chizishni taklif qiladi. Tarbiyachi ikkita odam tasvirlangan portretlarni izohlab sharhlaydi.

Tarbiyachi doskada tayanch rasmlarni qo'yib chiqadi va rasm chizishning davomiyligini ifodalaydi. 1. Qalam bilan chiziladigan chizgi; 2. Umumiy bosh ko'rinishi; 3. Soch turmagi; 4. Yuz tuzilishining ko'rinishi; (nuqtalar yoki qalam bilan chizilgan shtrixlar; 5 Ko'zlar; 6. Burun qismi; 7. Tabassum qilayotgan og'iz. 8. Kiyim jihozlari.

Tarbiyachi asosiy diqqatni biz chizayotgan rasm katta va bolaning rasm ekanligini, shuning uchun qog'ozni gorizontal ravishda joylashtirish lozimligini, o'rtasini aniqlab va bir tomonlama katta oval-onasining rasmini, boshqa tomondan esa kichik oval- bolaning rasmini chizishni taklif qiladi. Odam tanasining rangi qanaqa va bu rangni palitrada qanday hosil qilish mumkinligini so'raydi. Rangli model ko'rsatilib tana rangini hosil qilish uchun palitrada tajriba o'tkazib ko'rishni tavsiya qiladi. Ayollar soch turmagi ko'rinishini tushuntiradi. Tabassumning tasvirlanish variantini ko'rsatadi. (Tabassum qilayotgan lab).Onaning ko'zi va sochining rangi qanaqaligini izohlashni taklif qiladi.





Biz onam bilan tabassum qilayapmiz.

Jismoniy daqiqa

Qo‘llarimiz osmonda,
Chapak-chapak chalamiz.
Oyoqlarimiz yerda,
Top, top, tepar top.

III. Mustahkamlash.

«Mozaika»

(yoki mayda bo‘laklardan yaxlit ko‘rinishni hosil qilish)

- 1) Har bir guruhga konvertlar tarqatiladi.
- 2) Konvert ichida bugun rasmi chizilgan rasm bo‘laklari yoki chizish bosqichlari berilgan.
- 3) Ushbu rasm bo‘laklari yoki chizish bosqichlari yordamida butun rasm yaratadilar.

IV. Mashg‘ulotni yakunlash

Ish tugagach, tarbiyachi bolalarning ijodiy ishlarini tekshirib, baholaydi va ular asosida kichik ko‘rgazma tashkil etadi.

Bolalar mashg‘ulotda faol ishtirok etgani uchun rag‘batlantiriladi.

Mashg‘ulot: Rasm

Mavzu: “Ajoyib mozaika”

Ta’limiy maqsad: Bolalarni dekorativ jihozlash usullari bilan tanishtirib borish (mozaika) va mozaika usulida rasm chizishga nisbatan qiziqish uyg‘otish. Rasm chizishda ko‘p xillik ranglardan foydalangan holda har tomonlama talabga javob beradigan kompozitsiya tuzish.

Tarbiyaviy maqsad: Mashg‘ulot davomida gavdani tutib o‘tirish, atrofdagilarni fikrini hurmat qilishga, o‘ng qo‘l qoidasiga rioya qilishga o‘rgatish

Korreksion maqsad: Qo‘l motorikalarini rivojlantirish, mo‘yqalamdan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish, ranglarni farqlashga o‘rgatish.

Qo‘llaniladigan usullar: Mozaika usulida rasm chizish, zig-zag, aqli hujum

Lug‘at: oq qog‘oz, mo‘yqalam, bo‘yoq, qizil, sariq, yashil, gul, daraxt,

Kerakli jihozlar: Fon uchun oq rangdagi turli hajmdagi qog‘ozlar, rangli tizimchalar va modulli applikatsiya uchun konfettilar, qaychilar, yelimlash uchun mo‘yqalamlar, yelim, guash bo‘yog‘i va rangli qalamlar (bolalar xohishiga ko‘ra), turli hajmdagi mo‘yqalamlar, palitralar, suvli bankachalar. Tarbiyachining dekorativ usulda ishlangan 2-3 ta kompozitsiyalari (masalan: gul, daraxt, baliq, qush va nomsiz kompozitsiya).

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism

— Salomlashish




— Artikulyatsion mashqlar

II. Asosiy qism

“Aqliy hujum” texnologiyasi orqali tarbiyachi qalamlarni bolalarga ko‘rsatadi va ketma-ket nomini so‘raydi.

Tarbiyachi bolalarga 4-5 ta devoriy mozaika kompozitsiyasini ko‘rsatadi (masalan, gul, daraxt, baliq, qush va noma‘lum mazmundagi kompozitsiya).

Tarbiyachi birma-bir rangli kompozitsiyalarni ko‘rsatadi va bularda nimalar ifodalanganini so‘raydi. Qisqa, ammo muhokamadan so‘ng bu usulni tushuntiradi: “Rassom- jihozlovchilar avval jihozlanadigan joyni o‘lchab oladi va shu joyga mos mavzu tanlaydi. So‘ngra usta birlamchi chizgi tayyorlab ishni boshlaydi. Mozaikalar xuddi mayda qismlardan tashkil topgan rasmdek chiroyli ko‘rinadi. Shuning uchun ham ularni quyidagicha bajarish lozim: “avval rasm chizib olinadi, so‘ngra uni qismlarga bo‘lib, turli ranglar bilan bo‘yab chiqiladi”. Shu tariqa bolalarga ham noma‘lum narsalarning shaklini chizish topshiriladi. Bu narsalar qismlarga bo‘linib turli ranglar bilan jihozlab chiqiladi.



Mozaika usuli

Jismoniy daqiqa

1 – 2 boshni ko‘tar,
3 – 4 qo‘lni yonga keltir,
5 – 6 sekin o‘tir, o‘tirib dam olamiz,
Mashg‘ulotga tayyorlanamiz.

III. Mustahkamlash.

“Zig-zag” texnologiyasi

Bolalar ketma-ket rasmni chizish texnikasini aytib berishadi

IV. Mashg‘ulotni yakunlash

Ish tugagach, tarbiyachi bolalarning ijodiy ishlarini tekshirib, baholaydi va ular asosida kichik ko‘rgazma tashkil etadi.

Bolalar mashg‘ulotda faol ishtirok etgani uchun rag‘batlantiriladi.

Mashg‘ulot: Rasm

Mavzu: “Qo‘lqop”

Ta’limiy maqsad: “Qo‘lqopni” tasvirlash va o‘z qo‘llari asosida moslashtirish. Qo‘l kaftlari bo‘yicha tartib va ishonch bilan qalamni ushlagan holda yurgizib

chiqish malakasini shakllantirish. Mahsulot shakliga qarab naqsh yasashni o'rganish. Mustaqil ravishda tasavvur va o'ylagani asosida naqsh tuzishga o'rgatish. Tasavvurlarini shakllantirish. Qo'l va ko'z harakatini moslashtirish. Juft narsalarning bir-biriga mosligini ko'rgazmali tasavvur qilish (ikkala qo'lqopda naqshlar bir xildaligi)

Tarbiyaviy maqsad: Mashg'ulot davomida gavdani tutib o'tirish, atrofdagilarni fikrini hurmat qilishga, o'ng qo'l qoidasiga rioya qilishga o'rgatish

Korreksion maqsad: Qo'l motorikalarini rivojlantirish, mo'yqalamdan to'g'ri foydalanishni o'rgatish, ranglarni farqlashga o'rgatish.

Qo'llaniladigan usullar: Applikatsiya elementlari bilan dekorativ rasm chizish

Lug'at: oq qog'oz, mo'yqalam, bo'yoq, qo'lqop, naqsh, qaychi

Kerakli jihozlar: Oq yoki rangli qog'oz, rangli qalam va flomasterlar, qaychilar, yelim, yelimlash uchun mo'yqalam, salfetkalar, guash bo'yoqlar va oq qog'oz.

Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism

- Salomlashish
- Artikulyatsion mashqlar

II. Asosiy qism

— O'tgan mashg'ulotimizda nimani rasmini chizgandik? Bugungi mashg'ulotimiz tushunchalari bilan tanishib olsak.

Tushuncha	Mazmuni
Qish	
Qor	
Qo'lqop	
Qorbo'ron	

Doskaga qog'ozni qo'yib ish uslubini ko'rsatadi:

* chap qo'lni qog'oz ustiga qo'yamiz chap tarafga, ikkinchi qo'lqop uchun joy qolishi lozim: barmoqlarimizni keng ochib olamiz;

* rangli qalam olib kaftimiz atrofidan yurgizib chiqamiz- barmoqlarimizning hammasining atrofidan to'xtamasdan aylantirib chiqamiz va qalamni qo'lga qattiq suyantirgan holda qisib turamiz, qalam doim barmoqlarimizga tegib turishi lozim.

* qo'lni olganda qo'lqopni ko'ramiz, chiziqlarning boshini va oxirini birlashtiramiz; xuddi shu tarzda ikkinchi qo'limizni ham chizib olamiz: o'ng tomonga o'ng qo'lni qog'oz ustiga qo'yamiz va qalam bilan yurgizib chiqamiz chap qo'l bilan: bu qiyinroq, chunki biz o'ng qo'lda ishlashga o'rganganmiz, lekin chap qo'lni ham mashq qildirib turishimiz lozim, uni ham mehnat qilishga o'rgatishimiz lozim, u ham o'ng qo'ldagidek ishbilarmon bo'lishi lozim. (Diqqat! Agar guruhda chapaqaylar bo'lsa, ularga tarbiyachi izoh berib o'tishi lozim)

* tayyor har xil naqshlar bilan bezatilgan qo'lqoplarni ko'rib chiqiladi va qanday naqshlar bilan jihozlashni o'ylab ko'rish taklif etiladi.

Tarbiyachi bolalarga bir necha xil qo'lqoplar juftliklarini ko'rsatadi, ular turli xil naqshlar bilan jihozlangan, bir marotaba har bir juftlikdagi naqshlar bir xil bo'lishini ta'kidlaydi. So'ngra tarbiyachi bolalarga quyonchalar uchun qo'lqoplarni naqsh bilan jihozlab berishlarini so'raydi, qo'lqopni tasvirlashga qiynalganlarga qo'lqopning oddiysini yasashni: barmoqlarni jipslashtirgan paytda kaftlarini qalam bilan aylantirib chiqishi lozim. (Soddalashtirilgan holatni ko'rsatadi).


Bolalar kaftlarini qalam bilan yurgizgan holda qo'lqopni rasmini chizadilar. (Chap va o'ng qo'llarini), xotiralariga asosan naqshlarni eslaydilar va ifodalaydilar yoki ixtiyoriy naqshlar bilan jihozlaydilar.



Jismoniy daqiqa

1 – 2 boshni ko‘tar,
3 – 4 qo‘lni yonga keltir,
5 – 6 sekin o‘tir, o‘tirib dam olamiz,
Mashg‘ulotga tayyorlanamiz.

III. Mustahkamlash.



IV. Mashg‘ulotni yakunlash

Ish tugagach, tarbiyachi bolalarning ijodiy ishlarini tekshirib, baholaydi va ular asosida kichik ko‘rgazma tashkil etadi.

Bolalar mashg‘ulotda faol ishtirok etgani uchun rag‘batlantiriladi.

Tasviriyy faoliyat mashg'ulotlari yakunida bolalar quyidagilarni o'rganishlari kerak:

1.To'g'ri o'tirish, qog'ozning bir burchagini qo'l bilan bosib turish, qalam, mo'yqalamni to'g'ri ushlash.

2.Nigoh bilan qalam tutgan qo'lning harakatini kuzatib borish; rasm chizishda qalam, mo'yqalam qog'ozda aniq iz qoldirishiga erishishga, qog'ozni hijimlamaslik, yirtmaslikka o'rgatish.

3.To'g'ri, dumaloq chiziqlar tortish, ularni birlashtirish, mo'yqalamni bo'yoqqa asta botirish, oddiy bosib chiqish harakatlarini bajarish ko'nikmalarini shakllantirish.

4. Mo'yqalamni mustaqil suvda chayish, bo'yoqning qurishini kuta bilish, ularni aralashtirib yubormaslik, mo'yqalamning butun pastki qismi bilan va faqat uchi bilan yurgazish, rasmlarni bo'yab chiqish, shtrixlashga o'rgatish.

5.Rasmni predmet-natura bilan solishtirish, qo'yib ko'rish («o'xshaydi», «o'xshamaydi»), ikki obyekt ichida farqlash jarayonini olib borish.

6. Qog'oz sathida uning tomonlarini nomlagan holda (yuqori, pastda, o'ng burchak, chap burchak) mo'ljal ola bilishga, tasvirni qog'ozning o'rtasida, yirik va aniq ko'rinishda, guruhli obyektlarni butun qog'oz sathi bo'ylab joylashtirishga o'rgatish.

7. Dekorativ rasm chizish, applikatsiyada turli shakl (to'g'rit turtburchak, doira, kvadrat) ichida naqsh elementlarini joylab, yopishtirishga o'rgatishda davom etish.

8.Estetik tarbiyalash maqsadida bolalarni tasvirni diqqat bilan ko'rib chiqish, o'z taasurotlarini bildirish, ranglar va shakllar yorqinligi va uyg'unligidan baxra olish ko'nikmasini singdirishni o'rgatish.

9. Mo'yqalamni turli holatlarda qo'llay olish, keng va tor chiziqlar, surtmalar, nuqta, yarimoy, doiralarni hosil qilish. Shtrixlashni konturni chizib, yurgazib chiqish bilan yakunlashga o'rgatish.

10.Individual va jamoaviy rasmlar chizish, atrof borliq, hayot va badiiy asar voqea-hodisalari asosida predmetli va syujetli rasm chizish;

11. Rasm chizishni xomaki reja tuzishdan boshlash, ya'ni rasmning ayrim shtrixlarini qora qalamda ochroq qilib chizib olish;
12. Rasmda turli tasviriy materiallar va tasviriy texnologiyalarni qo'llash;
13. O'yinchoq va bolalar hayotida faol qo'llaniladigan narsalarning tasviriy siluetlariga xalq amaliy bezak san'ati asosida naqshlar chizish;
14. Qismlar uyg'unligi, holat shakli va figura harakatini nazarda tuttav holda, turli narsalar yasash, ikki-uch va undan ortiq tasvirlar asosida syujetli kompozitsiya yaratish;
15. Tasvirni kompozitsiya jihatidan to'g'ri joylashtirish, turli predmetlardan tasvir hosil qilish, unga xalq amaliy bezak san'ati asosida hayvon va qushlarning tasvirlarini kiritish, ishda turli fakturadagi qogozlardan foydalanish;

3.2. Ta'limiy tadqiqot natijalari

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish ishlari yuzasidan korreksion-pedagogik tizim bir o'quv yili davomida sinovdan o'tdi. Ta'limiy tadqiqot maqsadi maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ta'limiy o'qitishdan so'ng tasviriy faoliyat bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarini o'rganishni ko'zda tutdi. Ta'limiy eksperiment bosqichlari: 1-bosqich maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatini o'rganish, 2-bosqich ta'limiy dastur bo'yicha maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish, 3-bosqich ta'limiy o'qitishdan so'ng maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatini o'rganish. Tajriba-sinov ishlari Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106- sonli maxsus maktab-internatining maktabgacha tarbiya bo'limida olib borildi. Tajriba-sinov ishlari tartibi yuqorida ta'kidlangan bosqichlar asosida amalga oshirildi. Nazorat guruhidagi 10 nafar bolalar amaldagi dastur bo'yicha, tajriba guruhidagi 10 nafar bolalar esa biz taklif etgan dastur asosida o'qitildi.

Dastlab ta'limiy tadqiqotdan so'ng guruhlaridagi bolalar tasviriy faoliyatga o'rganish imkoniyatlarini tahlili natijalarini keltiramiz. Tadqiqotda nazorat guruhlarida 10 nafar bola vazifalarni bajardi.

Birinchi tur topshiriq (erkin rasm chizish) eshitishida nuqsoni bo'lgan tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining rasm chizishga bo'lgan qiziqishlarini aniqlashga qaratilgan:Eshitishida nuqsonmi bo'lgan bolalarning 50% o'yinchoqlarga qiziqish bildirgan bo'lsalar, 30% bolalar qalam, qog'ozlarni tanlashdi va rasm chizishga kirishishdi, juda kam foiz 20% bolalar qurish-yasashga va kitobga qiziqish bildirishdi.

Ikkinchi tur topshiriq (bayramdan so'ng tasavvurlari bo'yicha rasm chizish) bolalarning shaxsiy hissiy idrok tajribalarini rasmlarda aks ettira olish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan.Eshitishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning aksariyat qismi 30% rasm chizish faoliyatini mustaqil tashkil etish ko'nikmasiga (qalam, qog'oz tanlovi, ish joyini tayyorlash) ega bo'ldi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning 30% tasviriy faoliyat mashg'ulotlar mavzularini o'z rasmlarida namoyon etganlar. Bolalarning rasmlari turlariga ham katta ahamiyat qaratildi. Bayramdan so'ng tasavvurlari bo'yicha rasm chizish eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning aksariyatining rasmlari alohida predmetlar rasmidan (qo'g'irchoq, uy, mashina) iborat bo'ladi 15%, ularning bir qismida esa 20% syujet elementlari (bir mavzu doirasidagi bir qancha obyektlarning tasviri odamning rasmsiz) chizilganligini kuzatish mumkin. Juda kam kar va zaif eshituvchi bolalar 5% o'z rasmlarida insonlarning alohida harakatlar, o'zaro munosabatlari va hissiy xolatlari ifodalangan syujetli rasmlarni chiza olganliklari kuzatildi.Eksperimentning turli topshiriqlari doirasida chizilgan rasmlarni tahlil qilish davomida biz rasmlarning mazmunan kambag'alligini aniqladik. Xattoki syujetli rasmda ham qahramonlarning harakatlari tasvirlanmaganligi, ularning hissiy holatlari ifoda etilmaganligini ko'rish mumkin. 20% bola topshiriqni bajara olmadi.

Uchinchi tur topshiriq (“Odam rasmi”) esa rasmda bolalarning o‘z tengdoshlari va kattalar bilan o‘zaro munosabatlarini aks ettirishga yo‘naltirilgan. Tasavvur bo‘yicha rasm chizishda esa eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning barchasi o‘zlarini tasvirlaganlar. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktabgacha tarbiya yoshidagi 30% bolalarning rasmlarida boshqa bolalarni va kattalarni tasvirlaganlar, biroq tasvirlangan qahramonlarning barchasi orasidagi bog‘liqlikning yo‘qligi aniqlandi. 80% bola topshiriqni bajara olmadi.

To‘rtinchi tur topshiriq “Mening oilam” rasmi bolalarning o‘z oilasi a‘zolari bilan o‘zaro munosabatlarini aks ettirishga yo‘naltirilgan.

“Mening oilam”ni tasvirlash uch ko‘rinishda chizildi. “Bosh-oyoq” ko‘rinishida rasmlar 10%, odam tasviriga nomutanosib ko‘rinishidagi rasmlar 10%, odam tasviri ko‘rinishidagi rasmlar 10% tashkil etdi. “Mening oilam” esa rasmi bolalarning oilasi a‘zolari bilan o‘zaro munosabatlarini aks ettirishga yo‘naltirilgan. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktabgacha tarbiya yoshidagi 30% bola ota yoki onasini tasvirlaganlar, biroq tasvirlangan qahramonlarning barchasi orasidagi bog‘liqlikning yo‘qligi aniqlandi. 40% bola topshiriqni bajara olmadi.

**Nazorat guruhidagi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy
faoliyatini eksperimental o‘rganish natijalari**

4-jadval

№	Topshiriq mazmuni	O‘quvchi soni	Topshiriqni mustaqil bajardi	Topshiriqni xatolar bilan bajardi	Topshiriqni bajarmadi
1.	Eshitishida nuqsoni bo‘lgan tarbiyalanuvchilarni rasm chizishga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlashga qaratilgan	10(100%)	5(50%)	5(50%)	

2.	Bayramdan so‘ng tasavvurlari bo‘yicha rasm chizish Bolalarning shaxsiy hissiy idrok tajribalarini rasmlarda aks ettira olish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan	10(100%)	3(30%)	5(50%)	2(20%)
3.	“Odam rasmi” ni chizish bolalarning o‘z tengdoshlari va kattalar bilan o‘zaro munosabatlarini aks ettirishga yo‘naltirilgan.	10(100%)	60(60%)	30(30%)	10(100%)
4.	“Mening oilam”rasmini chizish Bolalarning o‘z oilasi a‘zolari bilan o‘zaro munosabatlarini aks ettirishga yo‘naltirilgan	10(100%)	30(30%)	30(30%)	40(40%)

Ta’limiy tadqiqotdan so‘ng maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatini shakllantirishning holatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotni tashkil etish jarayonida Y.S.Maslova metodikasidan foydalandik. Ta’kidlovchi eksperimentning maqsadi maktabgacha tarbiya yoshidagi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning rasm chizish jarayonlarini tadqiq etishdan iborat. Ta’kidlovchi eksperiment to‘rt turdagi topshiriqlarni qamrab oladi: Birinchi tur topshiriq (erkin rasm chizish) eshitishida nuqsoni bo‘lgan tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining rasm chizishga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlashga qaratilgan. Ikkinchi tur topshiriq (bayramdan so‘ng tasavvurlari bo‘yicha rasm chizish) bolalarning shaxsiy hissiy idrok tajribalarini rasmlarda aks ettira olish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Uchinchi tur

topshiriq (“Mening oilam”) esa rasmda bolalarning o‘z tengdoshlari va kattalar bilan o‘zaro munosabatlarini aks ettirishga yo‘naltirilgan. To‘rtinchi tur topshiriq (“Mening oilam”) esa rasmda bolalarning o‘z oilasi a‘zolari bilan o‘zaro munosabatlarini aks ettirishga yo‘naltirilgan.

Birinchi tur topshiriq (erkin rasm chizish) eshitishida nuqsoni bo‘lgan tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining rasm chizishga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlashga qaratilgan: Faoliyatga bo‘lgan munosabat eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun nisbatan qiziqarli bo‘lgan mashg‘ulotni tanlash jarayonida aniqlandi. Ana shu maqsadda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga turli faoliyat turlarida qo‘llaniluvchi jihozlar (o‘yinchoqlar, qurilish materiallari, qalamlar, qog‘oz, rasmlar kitoblari) taklif etildi. Ko‘rsatilgan jihozlardan birortasining tanlovi bolani qiziqitiruvchi faoliyat turini o‘yin, rasm chizish, qurish-yasash, kitobni tomosha qilish yoki o‘qishdan birontasini ko‘rsatib berar edi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan 90% bolalar qalam, qog‘ozlarni tanlashdi va rasm chizishga kirishishdi, juda kam foiz 10% bolalar qurish-yasashga va kitobga qiziqish bildirishdi.

Ikkinchi tur topshiriq (bayramdan so‘ng tasavvurlari bo‘yicha rasm chizish) bolalarning shaxsiy hissiy idrok tajribalarini rasmlarda aks ettira olish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning 80% bayramdan so‘ng tasavvurlarini o‘z rasmlarida namoyon etganlar. Bolalarning rasmlari turlariga ham katta ahamiyat qaratildi. Bayramdan so‘ng tasavvurlari bo‘yicha rasm chizish eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning 20% o‘zlarining mustaqil g‘oyalari bo‘yicha rasmlarini qisman, xatoliklar bilan namoyish etganlar.

Uchinchi tur topshiriq (“Odam rasmi”) esa rasmda bolalarning o‘z tengdoshlari va kattalar bilan o‘zaro munosabatlarini aks ettirishga yo‘naltirilgan. Tasavvur bo‘yicha rasm chizishda esa eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning barchasi o‘zlarini tasvirlaganlar. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktabgacha tarbiya yoshidagi 60% bolalarning rasmlarida boshqa bolalarni va kattalarni tasvirlaganlar, tasvirlangan qahramonlarning barchasi

orasidagi bog‘liqlikning borligi aniqlandi. 30% bola topshiriqni xatoliklar bilan qisman bajardi, 10% bola topshiriqni bajara olmadi.

To‘rtinchi tur topshiriq “Mening oilam” rasmi bolalarning o‘z oilasi a‘zolari bilan o‘zaro munosabatlarini aks ettirishga yo‘naltirilgan.

Zaif eshituvchi bolalar maktabgacha tarbiya yoshidagi 70% bola ota yoki onasini tasvirlaganlar, 20% bola topshiriqni xatoliklar bilan qisman bajardi, 10% bola topshiriqni bajara olmadi.

Ta’limiy o‘qitish metodikasini ishlab chiqishda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish yuzasidan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning o‘ziga xos tizimini aniqlash uchun o‘qitishning umumiy, hamda xususiy tamoyillariga tayanildi. Maxsus uslubiyatning umumiy tamoyillari umuman maxsus pedagogik jarayon tuzilishini belgiladi, ularni amalga oshirish tasviriy faoliyatga o‘rgatishning barcha vazifalarini hal etishni ta’minladi. Shunday qilib, maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida eshitishida nuqsoni bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘ziga xos ta’limiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda psixologo-pedagogik sharoitlar yaratildi. Ta’limiy tadqiqotdan so‘ng eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyati talab darajasida ortganligi kuzatildi.

Tajriba guruhidagi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriy faoliyatini eksperimental o‘rganish natijalari


5-jadval


№	Topshiriq mazmuni	O‘quvchi soni	Topshiriqni mustaqil bajardi	Topshiriqni xatolar bilan bajardi	Topshiriqni bajarmadi
1.	Eshitishida nuqsoni bo‘lgan tarbiyalanuvchilarni rasm chizishga bo‘lgan qiziqishlarini aniqlashga qaratilgan	10(100%)	8(80%)	2(20%)	

2.	Bayramdan so'ng tasavvurlari bo'yicha rasm chizish Bolalarning shaxsiy hissiy idrok tajribalarini rasmlarda aks ettira olish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan	10(100%)	8(80%)	2(20%)	
3.	“Odam rasmi” ni chizish bolalarning o'z tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro munosabatlarini aks ettirishga yo'naltirilgan.	10(100%)	70(60%)	20(30%)	10(100%)
4.	“Mening oilam”rasmini chizish. Bolalarning o'z oilasi a'zolari bilan o'zaro munosabatlarini aks ettirishga yo'naltirilgan	10(100%)	60(60%)	30(30%)	10(10%)


**Tajriba va nazorat guruhlaridagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatini eksperimental o'rganish tahlilining qiyosiy natijalari
(1-topshiriq)**

(2-topshiriq)






(3-topshiriq)



(4-topshiriq)



3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatishning samarali yo'llari

Maxsus maktabgacha muassasasida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatishning samarali usullari ta'limiy-tarbiyaviy-korreksion maqsadni amalga oshiruvchi yagona yo'l sifatida mashg'ulotdagi bolaning va tarbiyachining butun faoliyatini tashkil etish vositasi sanaladi. Y.B.Babanskiy tasviriyl san'at metodlarini faoliyatning umumiy xarakteriga qarab, 3 guruhga klassifikatsiyalagan²⁹: 1-guruh: o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish. Bunga o'quvchilarning ko'rgazmali, og'zaki, amaliy, induktiv va deduktiv, reproduktiv va muammoli-izlanuvchan, hamda mustaqil ishlari kiradi. 2-guruh: ta'lim berishning o'quv faoliyatini stimullashtirish (qiziqtirish va rag'batlantirish) va motivatsiyalash (maqsadga yo'naltirish) metodlari. O'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish va motivlashtirish; burch va javobgarlikni stimullashtirish motivlashtirish. 3-guruh: o'quv faoliyatida nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari: og'zaki nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish; yozma nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish; laboratoriya amaliy nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish;

Maktabgacha ta'lim muassasasida kuzatish metodi tasviriyl faoliyatga o'rgatish sistemasining umumiy asosini tashkil qiladi. Chunki u atrof-muhitni o'rganishda, bilish, hamda uni aks ettirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Bolalarda qanchalik kuzatish, atrof-olam ko'rinishi bilan aloqa o'rnatish, umumiylik va yakka-likni ajratish malakasi rivojlangan bo'lsa, shuncha bolalar ijodiy qobiliyatining rivojlanishi bog'liq bo'ladi. Lekin kuzatishning o'zi ko'rganni tasvirlab berishga to'la imkon bermaydi. Bolalarni tasviriylning muhim usullariga, turli tasviriyl materiallardan foydalanish yo'llariga o'rgatish zarur.

Ko'rgazmali metod va o'rgatish usullariga naturadan, rasm reproduksiylalaridan, namunadan, boshqa ko'rgazmali qo'llanmalardan

²⁹ Е. С. Маслова Формирование изобразительной деятельности детей старшего дошкольного возраста с нарушенным слухом Автореф. дис. . . . канд.пед.наук. — Москва, 2010 .-27.с.

foydalanish, alohida predmetlarni ko‘rib chiqish, tarbiyachi tomonidan tasviriyl usullarini ko‘rsatib berish, bolalarning bajargan ishlarini mashg‘ulot yakunida ko‘rsatish, ularni baholash kiradi.

Tasviriyl faoliyatning turli ko‘rinishlarida o‘rgatish usullari turlichadir, chunki bir obraz turli vositalar yordamida vujudga keltiriladi. Har bir usuldan o‘ylab, mashg‘ulot oldida turgan vazifalarga nisbatan, dasturda berilgan mashg‘ulotning mazmuniga nisbatan va asosan ushbu guruh bolalarining qay darajada rivojlanganligini hisobga olgan holda foydalanish kerak. Ko‘rgazmalilik bolalar tasviriyl faoliyatining moddiy hissiyl asosini yangilaydi, so‘z esa to‘g‘ri tasavvurni, tahlilni, idrok qilinganlarni va tasvirlayotganlarini umumlashtirishni shakllanishiga yordam beradi.

Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida eshitishida nuqsoni bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘ziga xos ta‘limiyl ehtiyojlarini inobatga olgan holda psixologo-pedagogik sharoitlar yaratildi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o‘rgatish bo‘yicha mashg‘ulotlarda “7 qadam” texnologiyasi, “Qumli rasmlar” texnologiyasi, Paxtali tayoqchalar texnologiyasi, Aks ta’sir texnologiyasi, Rangli mel texnologiyasi, Assimetrik texnologiyasi, Applikatsiya elementlari texnologiyalaridan mavzuning asosiyl qismida va 3x4 texnologiya, Tushunchalar tahlili, Toifalash, Zig-zag, VENN diagrammasi, Gugurt cho‘pi, Kubik, «Mozaika», Tasdiqlar, Bingo texnologiyalaridan mavzuni mustahkamlashda foydalanildi. Mazkur texnologiyalar eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar tasviriyl faoliyati mashg‘ulotlarida foydalanish eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tasviriyl faoliyati samaradorligini talab darajasida ortganligi omili ekanligi dalillandi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish tizimini ishlab chiqishga maktabgacha ta'limning davlat ta'lim standarti va tasviriyl faoliyat predmetidan yozilgan o'quv dasturi, rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari, hamda Y.S.Maslovaning eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish yuzasidan yozgan dasturlari asos bo'lib xizmat qildi. Ta'limiy o'qitish metodikasini ishlab chiqishda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyatga o'rgatish yuzasidan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning o'ziga xos tizimini aniqlash uchun o'qitishning umumiy, hamda xususiy tamoyillariga tayanildi. Maxsus uslubiyatning umumiy tamoyillari umuman maxsus pedagogik jarayon tuzilishini belgiladi, ularni amalga oshirish tasviriyl faoliyatga o'rgatishning barcha vazifalarini hal etishni ta'minladi. Shunday qilib, maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida eshitishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos ta'limiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda psixologo-pedagogik sharoitlarni yaratildi. Ta'limiy tadqiqotdan so'ng eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriyl faoliyati talab darajasida ortganligi kuzatildi.

Xulosa

Tasviriy faoliyat bolaning atrof-olam haqidagi mavjud tasavvur va taassurotlarini aks ettiruvchi ilk natijaga ega faoliyat turi hisoblanib, bola bu jarayonda egallangan tajribalarini qayta ko'rib chiqishi va munosabatini bildirishiga imkoniyat yaratiladi. Bolalar tasviriy ijodiga faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlarda rasm chizish jarayoni bola tomonidan ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishning o'ziga xos shakli sifatida ko'rib chiqilgan. Milliy surdopedagogikada maxsus ta'lim sohasida maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish masalalari umumiy tarzda o'rganilgan, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirish muammolari ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganilgan, lekin maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayoni ilmiy tadqiqot obyekti bo'lmagan. Tadqiqotlarni o'rganish va ularni tahlil etish natijasida eshitishida nusoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishni o'rganish tizimli yondashishni talab qiladigan o'ta murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-pedagogik muammodir, degan xulosaga keldik.

Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari amaliyotidagi ahvolini aniqlash, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish amaliyotining ish tajribalarini umumlashtirish, maqsadga muvofiq mos xulosalar chiqarishga, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishni yaxshilashga oid zarur tavsiya va takliflar berishga yordam beradi. Tasdiqlovchi eksperiment surdopedagoglar bilan suhbat, ularni kuzatish, ularning shaxsiy ishlarini o'rganish va maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish amaliyotining bugungi xolatini o'rganish bo'yicha tadqiqotni tashkil etish jarayonida Y.S.Maslova metodikasi asos sifatida olindi. Biz tomondan o'tkazilgan tadqiqotlar jarayonida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tasviriy faoliyatining o'ziga xosliklari aniqlandi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar rasm chizishga juda qiziqishlarini namoyon etdilar, ko'pincha bunday qiziqishning asosiy sababi ijobiy rag'batga ega bo'lish yoki kattalar tomonidan maqtov

soʻzlarining aytilishi boʻlsa, ayrim xolatlarda bu sabablar juda turli ekanligi qayd etildi. Tasviriyl faoliyat mahsulotlarida mazmunan boy emaslik xolatlari namoyon boʻlib, bu kar va zaif eshituvchi bolalarning atrof-olamdagi predmetlar va hodisalar haqida tasavvurlarining kambagʻalligiga bogʻlangandir. Rasmlar xarakterini tahlil qilish jarayoni shuni koʻrsatdiki, maktabgacha tarbiya muassasasining katta guruhlarida tarbiyalanayotgan kar va zaif eshituvchi bolalarning tasviriyl faoliyatlari mahsuli aksariyat xollarda predmetli rasmlardan iborat boʻladi. Syujetli rasmlar juda sodda boʻlib, ularda tasviriyl faoliyat mashgʻulotlaridan toʻgʻridan-toʻgʻri koʻchirib olingan sodda syujetlar aks etildi. Eshitishida nuqsoni boʻlgan bolalar rasmlarining oʻziga xosligi mazmunan boy boʻlmasligida, bu esa ularning oʻz hayotlarida sodir boʻluvchi voqea-hodisalarni, atrof-dagilar bilan oʻzaro munosabatlarni va bu jarayonlarga oʻzlarining hissiyl munosabatlarini namoyon eta olmasliklarini koʻrsatib beradi. Aniqlangan oʻziga xosliklar tasviriyl faoliyatda moʻljall olish komponentining yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

Eksperiment natijalaridan olingan maʼlumotlar kar va zaif eshituvchi bolalarni maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida taʼlim berish jarayonida rasm chizishlari juda sekin shakllanganligi va bunday oʻziga xoslik eshitishi idrokining oʻziga xosligi bilan asoslanishini daliladi. Shu sababli eshitishida nuqsoni boʻlgan maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriyl faoliyatga oʻrgatishda oʻziga xos taʼlimiyl ehtiyojlarini inobatga olgan xolda psixologo-pedagogik sharoitlarni yaratilishini talab etiladi.

Taʼlimiyl oʻqitish metodikasini ishlab chiqishda eshitishida nuqsoni boʻlgan bolalarni tasviriyl faoliyatga oʻrgatish yuzasidan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning oʻziga xos tizimini aniqlash uchun oʻqitishning umumiy, hamda xususiyl tamoyillariga tayanildi. Shunday qilib, maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida eshitishida nuqsoni boʻlgan maktabgacha yoshdagi bolalarning oʻziga xos taʼlimiyl ehtiyojlarini inobatga olgan xolda psixologo-pedagogik sharoitlarni yaratildi. Taʼlimiyl tadqiqotdan soʻng eshitishida nuqsoni boʻlgan bolalarni tasviriyl faoliyati talab darajasida ortganligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

I.O'zbekiston Respublikasi Davlat Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni 29- dekabr 1997 yil
2. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar Tayyorlash Milliy dasturi 29- dekabr 1997 yil
3. «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi Toshkent, 2014

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2 – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 380 b.
2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5 – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 384 b.
3. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6 – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 429 b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.– Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 636 b.
5. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat.–T.14. – Toshkent: O'zbekiston, 2006. – 280 b.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

III. Asosiy adabiyotlar

1. Венгер А.А. «Обучение глухих дошкольников изобразительной деятельности» Москва «Просвещение». 1972
2. Головчин Л.А. Дошкольная сурдопедагогика. – М.: Владос, 2001.– 304 с.
3. Hamidova M.Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida tasviriy san'at o'qitish metodikasi o'quv-metodik qo'llanma Toshkent -2011
4. Nurmatova M.SH., Xasanova SH.T. Rasm, buyum yasash va tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi, o'quv qo'llanma 2012 yil

5. Maktabgacha tarbiya yoshidagi zaif eshituvchi bolalarni o'qitish va tarbiyalash dasturi. Tuzuvchi: Rasulova N.A. – Toshkent: RO‘MM, 1993.– 76 b.
6. Fayziyeva U., Nazarova D., Qodirova F. «Surdopedagogika» Malaka oshirish institutlari va pedagogika institutlari uchun oqkuv qo‘llanma «Sano-standart» Toshkent – 2012.
7. Венгер Н.Ю., Пут к развитию творчества/Н.Ю. Венгер //Дошкольное воспитание. -1982. - №11. - стр. 32-38.
8. Волынки В.И. Художественно-эстетическое воспитание и развитие дошкольников: Учебное пособие – М.: Феникс, 2007. – 448с. – ИСБН 978-5-222-11688-3.
9. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте: Психол. очерк: Кн. для учителя– М.: Просвещение, 1991. – 93с. – ИСБН 5-09-003428-1.
10. Королёва С.Г. Развитие творческих способностей детей 5-7 лет: Пособие для педагогов-психологов ДОУ – М.: Учитель, 2009. – 114с. – ИСБН 978-5-7057-2078-1.
11. Колдуна Д.Н. Лепка/Аппликация с детьми 3-4 лет. -М.: Мозаика-Синтез, 2007. -34.с.
12. Эмоциональное развитие дошкольника. Пособие для воспитателей детских садов. Под. ред. А. Д. Кошелевой. — Москва: Просвещение, 1985. — 105 с.
13. Лыкова И.А. “Изобразительная деятельность в детском сад”. Ранний возраст. Москва-2009г.
14. Лыкова И.А. “Изобразительная деятельность в детском саду” Подготовительная к школе группа Москва-2008г.
15. Лыкова И.А. “Изобразительная деятельность в детском саду” Средняя группа. Москва-2009г.
16. Лыкова И.А. “Изобразительная деятельность в детском саду”. 1-2 году. Москва-2009г.

17. Лыкова И.А. “Изобразительная деятельность в детском саду”.
Младшая группа. Москва-2009г.
- 18.Краснов Н.В. История искусства зарубежных стран. Учебник для
студентов. — Москва: Изоискусство, 1999. — 175.с.
19. Hudoyorova O.K. O‘zbekiston maktablarida tasviriy san’atdan dars
samaradorligini oshirishning ba’zi masalalari. Toshkent: O‘zTSMU, 1995.
—20
- 20.Кузнецова Г.В. Рисуем дождик. Коррекционно-развивающие занятия
по обучению графическим навыкам детей 5-7 лет с проблемами в
развитии средствами изо деятельности. -М.: Гном-Пресс,2002. -56.с.
- 21.Басова А.Г., Егоров С.Ф. История сурдопедагогики. — М.:
Просвещение, 1984. – 295 с.
- 22.Р.М. Боскис Глухие и слабослышащие дети. – М.: Владос, 2001 – 36 с.
- 23.Носкова Л.П., Головчиц Л.А. Методика развития речи дошкольников
снарушениями слуха. – М.: Владос, 2004. – 44 с.

IV. Qo’shimcha adabiyotlar

1. Белова Н.И. Специальная дошкольная сурдопедагогика. М.:
Просвещение, 1985. – 128 с.
2. Гусакова М.А.«Аппликация» Педагогик ўқув юрт лари учун ўқув
қўлланма. Москва-1984й. Қодирова Ф.
3. Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o‘rgatish
metodikasi.—Toshkent: Sano-Standart, 2004.— 147 b.
4. Qodirova F.U. Boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar nutqini
shakllantirish.: Ped. fan. nomz. dis. avtoref...— Toshkent:TDPU. 2006. – 20 b.
5. Fayziyeva U.Y. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o‘rgatish.:
Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Toshkent: TDPI. 1994. – 18 b.
6. Краснов Н.В. История искусства зарубежных стран. Учебник для
студентов. — Москва: Изоискусство, 1999. — 170.с.
7. Юсов Б.П. Проблема художественного воспитания и развития
школьников. Автореф. дис. . . . док.пед.наук. — Москва,-16.с.

8. Якобсон Н.М. Психология художественного творчества. Москва: Знание, 1991. —48 с.дис док.пед.наук. — Москва,- 32 с.
9. Шматко Н.Д., Пелимская Т.В. Если малиш не слишит. – М.: Просвещение, 2003. – 255 с.
- 10.Shomaxmudova R. Farzandingizga oʻzingiz yordam bera olasiz // Bola va zamon.– Toshkent, 2006. – № 1. – B. 45.
11. Леонгард Э.И. и др. Я не хочу молчат! – М.: Просвещение, 1990.–112 с.
12. Леонгард Э.И., Самсонова Е.Г. Развитие речи детей с нарушенным с в семе. – М.: Просвещение, 1991. – 319 с.

V.Davriy nashrlar, statistik toʻplamlar va hisobotlar

1. Sulaymonov A. “Bolalarda tasviriy sanʼat asarlarini badiiy idrok etish koʻnikmalarini shakllantirish” Xalq taʼlimi ilmiy-metolik jurnal № 5 2013 yil 86-89
2. Sulaymonov A., Amirova G. “Maktabgacha taʼlim muassasalaridagi tasviriy faoliyat mashgʻulotlarining nazariy va amaliy asoslari” Xalq taʼlimi ilmiy-metodik jurnal №1 2013 yil 60-64
3. Abrueva M. “Tasviriy faoliyat mashgʻulotlari” Tarbiya xalq taʼlimi vazirligining ilmiy-metodik, maʼnaviy-maʼrifiy jurnali № 2 2012 yil 34-37
4. Nazarova D. Eshitishida muammosi boʻlgan bolalar taʼlimini takomillashtirish. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy yechimlari. Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2007. – B. 60-63.
5. Маслова Е.С. Использование изобразительной деятельности дошкольного возраста с нарушениями слуха Сборник материалов по итогам научно-исследовательской деятельности молодых ученых в области гуманитарных, естественных и технических наук в 2005 г. – М.: Прометей, 2006. – С. 93–96.

6. Маслова Е.С. Использование изобразительной деятельности как средства формирования социальных представлений дошкольников с нарушениями слуха Проблемы современного общества в исследованиях молодых ученых. Сборник научных трудов аспирантов. – М.: МОСУ, 2007. – №9. – С. 56–60.
7. Маслова Е.С. Рисование как средство обогащения социальных представлений дошкольников с нарушениями слуха Обучение и воспитание детей с нарушениями слуха на основе верботонального метода. Выпуск 3 под ред. Л.И. Руленковой – М.: СППРиК, 2007. – С. 52–55.
8. Маслова Е.С. Использование ЛЕГО-технологий в коррекционной работе с детьми с нарушениями слуха Обучение и воспитание детей с нарушениями слуха на основе верботонального метода. Выпуск 3 (из опыта экспериментальной работе) / под ред. Л.И. Руленковой – М.: СППРиК, 2007. – С. 65–69
9. Давидова Ж. Г. Нетрадиционные техники изобразительной деятельности на занятиях с глухими детьми Воспитание и обучение детей с нарушениями развития. - 2005. - №6. - С. 22 - 24.
10. Обухова Т. И. Изучение готовности младших дошкольников с нарушением слуха к созданию предметного изображения / Т. И. Обухова, Е. Н. Сороко// Дефектология. - 2012. - № 4. - С. 58-65

Internet saytlari:

1. <http://www.tdpu.uz>
2. <http://www.pedagog.uz>
3. <http://www.Ziyonet.uz>
4. <http://www.edu.uz>
5. <http://tdpu-INTRANET.Ped>
6. <http://www.defektolog.ru/>

Mashg‘ulot: Rasm

Mavzu: “Butadagi mevalar”

Ta’limiy maqsad: Bolalarni “Butadagi mevalar” mavzusida rasm solishga o‘rgatish. Bolalarga rasm solishda texnik vositalardan foydalanish: rangli qalamlar, paxtali tayoqchalar yoki barmoqlari bilan butalarning rasmini chizish. O‘z taassurotlarini tasviriyl faoliyat orqali ifodalashga o‘rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: Mashg‘ulot davomida gavgdani tutib o‘tirish, atrofdagilarni fikrini hurmat qilishga, o‘ng qo‘l qoidasiga rioya qilishga o‘rgatish

Korreksion maqsad: Qo‘l motorikalarini rivojlantirish, mo‘yqalamdan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish, ranglarni farqlashga o‘rgatish.

Qo‘llaniladigan usullar: Paxtali tayoqchalar va barmoqlar bilan rasm chizish, tushunchalar tahlili

Lug‘at: oq qog‘oz, mo‘yqalam, bo‘yoq, buta, meva, olcha, shoh

Kerakli jihozlar: Bolalar uchun: oq yoki och havo rang qog‘oz, paxtali tayoqchalar, guash bo‘yoqlari, rangli qalamlar va flomasterlar, qog‘oz salfetkalar. Tarbiyachida: turli xil variantlar, oq va och havo rang qog‘oz, paxtali tayoqcha, flomaster, qizil va yashil rangdagi aylanalar.

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism

- Salomlashish
- Artikulyatsion mashqlar

II. Asosiy qism

— O‘tgan mashg‘ulotimizda nimani rasmini chizdik? Qaysi usuldan foydalandik? Bugungi mashg‘ulotimizda butadagi mevalarni chizish uchun ham yangi usuldan foydalanamiz. Kelinglar, bugungi tushunchalarni izohlab olsak.

“Tushunchalar tahlili”

Tushuncha	mazmuni
Meva	Daraxtda o‘sadi

Buta	O'simlik
Shox	Buta bo'lagi
Olcha	Meva

Tarbiyachi "Mevalar" mavzusidagi kompozitsiyani tuzishni taklif etadi.

* Bu shoxchada hamma mevalar bir xilda- qizil, pishgan;

* Bu shoxchada mevalar hali pishmagan- biri qizil, biri yashil;

* Tarbiyachi kompozitsiyani tuzish yo'lini ko'rsatadi- doskada bir qator qilib mevalarni qo'yib chiqadi: qizil, yashil, va boshqa ranglardagi aylanalar;



So'ngra tarbiyachi bolalarning o'zlariga mevalarning rasmini chizishni buyuradi, ishning ketma-ketligini tushuntirib o'tadi.

* Oq yoki havo rang qog'ozni oladi;

* Flomaster yoki qalam bilan "Shoxchalarni mana bunday qilib chizamiz" - deb ko'rsatadi.

* "Paxtali tayoqchani olib yashil bo'yoqqa botirib olamiz va yashil pishmagan mevalarni oldinma-keyin rasmini chizamiz. Mana qarang ular qanday erkin holda shoxchada yotishibdi".

* "Boshqa paxtali tayoqchani olib, qizil bo'yoqqa botiramiz va pishgan qizil mevalarni rasmini solamiz va ularni birin-ketin yashil mevalarning orasiga qo'yib chizamiz.




Jismoniy daqiqa

Qo'llarimiz osmonda,
Chapak-chapak chalamiz.

Oyoqlarimiz yerda,

Top, top, tepar top.

III. Mustahkamlash.



IV. Mashg'ulotni yakunlash

Ish tugagach, tarbiyachi bolalarning ijodiy ishlarini tekshirib, baholaydi va ular asosida kichik ko'rgazma tashkil etadi.

Bolalar mashg'ulotda faol ishtirok etgani uchun rag'batlantiriladi.

Mashg'ulot: Rasm

Mavzu: So'zlashuvchi buloq

Ta'limiy maqsad: Bolalarni yangi badiiy jihoz-mel bilan tanishtirish. Uchli tomonini tasvirlash usullarini ko'rsatish (Shtrixlash) va butunligicha (hamma qismi bilan bo'yash). Suvning holatini chizishni va tasvirlashni o'rgatish: erkin tarzda suvning tushishini- "suv oqimi" tasvirini turli ranglarda ifodalash. Rang hissini shakllantirish. Yangi badiiy jihozlar va ular bilan ishlash usullarini o'zlashtirishda jasurlik, ishonch, tashabbusni tarbiyalash.

Tarbiyaviy maqsad: Mashg'ulot davomida gavdani tutib o'tirish, atrofdagilarni fikrini hurmat qilishga, o'ng qo'l qoidasiga rioya qilishga o'rgatish

Korreksion maqsad: Qo'l motorikalarini rivojlantirish, mo'yqalamdan to'g'ri foydalanishni o'rgatish, ranglarni farqlashga o'rgatish.

Qo'llaniladigan usullar: Rangli mel bilan rasm chizish, gugurt cho'pi, tasdiqlar

Lug‘at: oq qog‘oz, mo‘yqalam, bo‘yoq, mel, buloq, suv, mato, karton

Kerakli jihozlar: Rangli mel (har bir bola uchun turli rangdagi mel bo‘laklari), qog‘oz, yopishadigan tizimcha yoki planshetda osish uchun qisqichlar, karton (planshet) uchun, mato salfetkalar.

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism

— Salomlashish

— Artikulyatsion mashqlar

II. Asosiy qism

— O‘tgan mashg‘ulotimizda nimalar haqida suhbatlashgandik? Mashg‘ulotimizni boshlashdan avval sizlarga tayoqchalar tarqataman. Tayoqchalar sonini sizlar tanlaysizlar. (“Gugurt cho‘pi”)

Mashg‘ulotdan oldin bolalar tizzalarini mato salfetkalar bilan yopadilar. Tarbiyachi bolalarga rangli mel solingan qutichani ko‘rsatadi, va bolalar diqqatini ularning stollaridagi yangi tasvirlash uchun rangli mel tayoqchalariga qaratadi.

Tarbiyachi: “Bugun biz rangli mel tayoqchalari bilan rasm chizamiz. Bu rangli tayoqchalar ustki qopqog‘i mavjud emas, qalamnikiga o‘xshab, shuning uchun ularni qalam emas mel deb atashadi. Kimni cho‘lida nechta tayoqcha bo‘lsa shuncha melni rasmini aytishadi.

Qog‘oz stol ustiga mustahkamlab chiqilgan.

Qo‘lingizga rangli mel tayoqchalarini oling, xuddi oddiy mel singari u bilan asfaltga rasm chizgandek chizib ko‘ring. Avval tayoqchaning uchi bilan chizamiz. (Tarbiyachi o‘zining qog‘ozida bir nechta qisqa chiziqlar chizadi; so‘ngra bolalarga tosh rangidagi rangli melni topib u bilan qog‘ozning pastki qismidan bir nechta chiziq o‘tkazishni taklif qiladi). Nima uchun rangli mel tayoqchalari qobiq bilan o‘ralmagan, qalamlar kabi yoki flomasterlar kabi. (Bolalarning javoblaridan so‘ng tarbiyachi havo rang rangli mel tayoqchalarini olib, hamma tomoni bilan qog‘ozning qancha masofasini bo‘yab chiqadi, xuddi

osmon rasmini chizgandek; soʻngra bolalarga havo rangdagi rangli melni olib osmon rasmini chizishga intiladi.) Yoqdimi?

Rangli mel uchun mos qiziqarli mavzu topib berish mumkin. Kelinglar togʻ bulogʻini rasmini chizishga intilib koʻramiz va toshlar orasidan favvora kabi otilib chiqayotganini suv oqimi rasmini chizamiz. Suv oqimini uzun, sachrayotgan suvlarni kalta, suv tomchilarini-juda kichik, nuqtalardek chizamiz. Suv oqimi kamalakdek turli ranglar bilan jilolanadi. (Tarbiyachi oʻz qogʻozida bir nechta tez oqayotgan suv oqimini havo rang, yashil rang, pushti rang va boshqa ranglardaga suv oqimini chizadi). Osmon va boshqa qoʻshimcha narsalarni chizish yodingizdan koʻtarilmasin. Toshlarini boʻyaymiz (mel tayoqchasini butunligicha botirib chizadi), oʻtlarni esa shtrix chizigʻi bilan chizamiz (melning uchli tomoni bilan chizadi)”.

Jismoniy daqiqa

1 – 2 boshni koʻtar,

3 – 4 qoʻlni yonga keltir,

5 – 6 sekin oʻtir, oʻtirib dam olamiz,

Mashgʻulotga tayyorlanamiz.

III. Mustahkamlash.

“Tasdiqlar”

1. Suv oqimi kamalakdek turli ranglar bilan jilolanadi.
2. Toshlar qizil rangda boʻyaladi.
3. Oʻtlar shtrix bilan chiziladi.
4. Suv oqimi uzun, sachrayotgan suvlar kalta nuqtalar bilan chiziladi.
5. Osmon pushti rangda boʻyaladi.

Bolalar qoʻlidagi belgilar bilan toʻgʻri jumalarga “+”, notoʻgʻri fikrlarga “-” belgilarini koʻtarishadi

IV. Mashgʻulotni yakunlash

Ish tugagach, tarbiyachi bolalarning ijodiy ishlarini tekshirib, baholaydi va ular asosida kichik koʻrgazma tashkil etadi.

Bolalar mashgʻulotda faol ishtirok etgani uchun ragʻbatlantiriladi.

Mashg‘ulot: Rasm

Mavzu: “Oltin bulutlar”

Ta’limiy maqsad: Yangi tasviriy jihoz—rangli mel bilan tanishtirishda davom etish. Uchli tomoni bilan (shtrix) va bo‘yash orqali ishlash usullarini takomillashtirish. Yoqimli ranglar bilan ishlash yo‘llarini o‘rgatish (och va to‘q rangli havo rang, oq va tilla rang bilan). Jasurlikni, ishonchni, tashabbuskorlikni yangi badiiy jihoz va usullar bilan ishlashda qo‘llash.

Tarbiyaviy maqsad: Mashg‘ulot davomida gavgdani tutib o‘tirish, atrofdagilarni fikrini hurmat qilishga, o‘ng qo‘l qoidasiga rioya qilishga o‘rgatish

Korreksion maqsad: Qo‘l motorikalarini rivojlantirish, mo‘yqalamdan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish, ranglarni farqlashga o‘rgatish.

Qo‘llaniladigan usullar: Rangli mel asosida rasm chizish, gugurt cho‘pi

Lug‘at: oq qog‘oz, mo‘yqalam, bo‘yoq, bulut, yelim, mato

Kerakli jihozlar: (Rangli mel) Har bir bola uchun turli rangdagi mel bo‘laklari, qog‘oz, yelimlash uchun tizimcha yoki qog‘ozlarni bir-biriga biriktirish, planshet, qisqichlar, karton bo‘laklari(planshetlar), mato salfetskalar.

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism

— Salomlashish

— Artikulyatsion mashqlar

II. Asosiy qism

— O‘tgan mashg‘ulotimizda nimalar haqida suhbatlashgandik? Mashg‘ulotimizni boshlashdan avval sizlarga tayoqchalar tarqataman. Tayoqchalar sonini sizlar tanlaysizlar. (“Gugurt cho‘pi”)

— Bugun biz siz bilan bulutlar bo‘lib o‘ynaymiz va bulutlarni rangli mel bilan rasm chizishni o‘rganamiz. Avval men ranglarni qog‘ozda ifodalashni va barmoqlar uchi bilan bulutlar chizilsa jonli chiqishi va quyoshni tilla rangda ko‘rinishini ifodalashimiz lozim. So‘ngra siz bulutli rasmini chizib berasiz. Osmonni qanday izohlaysiz? Qog‘ozni kartonga qisqichlar, skrepkalar yordamida yaxshilab joylashtiramiz.



1. Och havo rangdagi rangli melni olib butunligicha qog‘ozga qo‘yamiz va xohlagan shtrixlarni to‘lqinga yoki gajakka o‘xshatib chizamiz.

2. To‘q rangli melni olib butunligicha qog‘ozga joylashtiramiz va yana to‘lqinsimon yoki spiralsimon chiziqlar chizamiz. (Bunda chiziqlar bir- biriga to‘qnashishi mumkin)

3. Qolgan oq joylar (u joy oqargan deb nomlanadi). - bu bulutlardir, faqat rasmda ularni shunday tarzida qoldirish lozim. Biz bulutlarni tilla rangda izohlaymiz. Shuning uchun och sariq rangli mel olamiz va oqargan joylarini yengilgina bo‘yaymiz va hattoki yengilgina och havo rangdagi osmonga chiqib ketishimiz mumkin.

4. Endi to‘q- sariq rangdagi rangli mel olib uni och – sariq rangdagi bulut ustidan yurgizamiz va havo rangdagi ba’zi bir joylarini bo‘yab qo‘yamiz, ba’zi yerlarida – yengil chiziq yoy va to‘lqinlarni chizamiz.

5. Nihoyat eng qiziqarlisi va kutilmagan ajoyib narsa! Bir tomonga rangli mel tayoqchalarini olib barmoqlarimiz bilan rasm chizishni boshlaymiz- ranglarni yoya boshlaymiz, yengilgina ularni bir-biriga aralashtira boshlaymiz. O‘rtasidan boshlaymiz va sekin-asta yuqoriga, har tarafga, past tomon aralashtirib turamiz. Bunda barmoqlar tezda ifloslanadi, shuning uchun barmoqlarni xo‘l latta bilan artib turishimiz lozim.



Bulut

Jismoniy daqiqa

Qo‘llarimiz osmonda,
Chapak-chapak chalamiz.
Oyoqlarimiz yerda,

Top, top, tepar top.

III. Mustahkamlash.

— Bolalar biz nima qildik?

— Nima bilan rasm chizdik?

— Nimalar rasmini chizdik?

IV. Mashgʻulotni yakunlash

Ish tugagach, tarbiyachi bolalarning ijodiy ishlarini tekshirib, baholaydi va ular asosida kichik koʻrgazma tashkil etadi.

Bolalar mashgʻulotda faol ishtirok etgani uchun ragʻbatlantiriladi.

Mashgʻulot: Rasm

Mavzu: “Men otam bilan birgaman”

Taʼlimiy maqsad: Juft odamlarning yon tomonlama rasmini chizish, tashqi koʻrinishni, uning kayfiyatini aks qilish (oʻzini va otasini). Obrazni toʻliq, ijodiy ifodalash uchun qiziqish uygʻotish. Tasviriy sanʼat turlari va koʻrinishi bilan tanishtirishni davom ettirish (portret).

Tarbiyaviy maqsad: Mashgʻulot davomida gavgani tutib oʻtirish, atrofdagilarni fikrini hurmat qilishga, oʻng qoʻl qoidasiga rioya qilishga oʻrgatish

Korreksion maqsad: Qoʻl motorikalarini rivojlantirish, moʻyqalamdan toʻgʻri foydalanishni oʻrgatish, ranglarni farqlashga oʻrgatish.

Qoʻllaniladigan usullar: Tasavvuri asosida rasm chizish, tushunchalar tahlili, mozaika

Lugʻat: oq qogʻoz, moʻyqalam, boʻyoq, portret, yuz, koʻz, quloq, qosh, soch, kiprik, lab

Kerakli jihozlar: Oq rangdagi qogʻoz, guash boʻyogʻi, palitralar, moʻyqalam, suv, oilaviy rasmlar, portret chizuvchi rassomlarning rasmlari, ish jarayonini koʻrsatish uchun tayanch rasmlar, ranglar, tana rangni hosil qilish uchun tajriba oʻtkazish.

Mashgʻulotning borishi:

I. Tashkiliy qism

— Salomlashish

— Artikulyatsion mashqlar

II. Asosiy qism



— Bugun sizlar bilan otamiz portretini chizamiz. Chizishdan avval portretga berilgan yuz a'zolarini mazmuni bilan tanishib olsak.

Tushuncha	Mazmuni
Quloq	Eshitish a'osi
Ko'z	Ko'rish a'zosi
Burun	Hid bilish a'zosi
Og'iz bo'shlig'i	Ta'm bilish a'zosi

Tarbiyachi mashg'ulot davomida bolalarni bir-biriga yon tomondan qarashga va bu vaqtda bitta ko'z, yaxshi tasvirlangan burun, yarimta og'iz va bitta qulog'i ko'rinishi mumkinligini, soch turmagi yaxshi ko'rinishiga diqqatlarini qaratishlari lozim.

Tarbiyachi doskada tayanch rasmlarni ko'rsatadi va ish jarayonining tartibini tushuntiradi: 1. qalam bilan chizilgan chizgi, 2. Yon tomondan tasvirlangan boshning umumiy ko'rinishi; soch turmagi; 4 Yuz tuzilishning belgilanishi; 5. Yaxshi "ishlangan" burun; 6.Bitta ko'z; 7.Yarimta og'iz; 8.Kiyim- kechak va jihozlar;

Tarbiyachi tushuntirayotganida juftlikdagi rasmlarni-katta va bolaning rasmini chizish uchun qog'ozni ko'ndalangiga joylashtirish lozim, o'rtasini belgilab olib so'ngra bir tarafdin katta ovalni-otasining boshini, boshqa tarafdin oval kichik oval bu bosh bolaniki ekanligini aytiladi. Rang modeli namoyish qilinadi va tana rangini hosil qilish uchun tajriba o'tkazish lozimligini aytadi. Bu rang tajribasini o'tkazishda bolalar palitralarda mashq bajaradilar. Alohida chizgida tarbiyachi bolalarga yuz qismining qismlarini va ko'z, burun, og'iz, quloq qismlarini joylashtirish ko'rsatadi.



Men otam bilan

Jismoniy daqiqa

Loladek qip - qizilman,
 Bog'ning erka qiziman,
 Donlarim marjon - marjon, shirin,
 Achchiq va nordon.

III. Mustahkamlash.

«Mozaika»

(yoki mayda bo'laklardan yaxlit ko'rinishni hosil qilish)

- 1) Har bir guruhga konvertlar tarqatiladi.
- 2) Konvert ichida bugun rasmi chizilgan rasm bo'laklari yoki chizish bosqichlari berilgan.
- 3) Ushbu rasm bo'laklari yoki chizish bosqichlari yordamida butun rasm yaratadilar.

IV. Mashg'ulotni yakunlash

Ish tugagach, tarbiyachi bolalarning ijodiy ishlarini tekshirib, baholaydi va ular asosida kichik ko'rgazma tashkil etadi.

Bolalar mashg'ulotda faol ishtirok etgani uchun rag'batlantiriladi.

Mashg'ulot: Rasm

Mavzu: “Bo‘g‘irsoq yo‘lka bo‘ylab yumalab ketayapti”

Ta'limiy maqsad: Bolalarni xalq ertaklari, qo‘shiq aytib yo‘lka bo‘ylab ketayotgan bo‘g‘irsoqning rasmini chizishga qiziqish uyg‘otish. Turli xil rasm chizish texnologiyalarini: guash bo‘yog‘i bilan aylana va oval shaklini chizish (flomaster bilan uzun ilmoqli to‘lqinsimon chiziqlar orqali yo‘lni tasvirlash. Ko‘rgazmali-obrazli tafakkurini, tasavvurini rivojlantirish. Tasviriyl faoliyat orqali o‘z taassurotlarni va tasavvurlarini ifodalashda ertak qahramonlaridan foydalanishga o‘rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: Mashg‘ulot davomida gavgdani tutib o‘tirish, atrofdagilarni fikrini hurmat qilishga, o‘ng qo‘l qoidasiga rioya qilishga o‘rgatish

Korreksion maqsad: Qo‘l motorikalarini rivojlantirish, mo‘yqalamdan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish, ranglarni farqlashga o‘rgatish.

Qo‘llaniladigan usullar: Ertak asosida rasm chizish, Bingo, Venn diagrammasi

Lug‘at: oq qog‘oz, mo‘yqalam, bo‘yoq

Kerakli jihozlar: Bolalar o‘z xohishlariga qarab turli rangdagi qog‘oz tasmalar (oq, och-yashil rang, havo rang), guash bo‘yog‘i, mo‘yqalamlar, suv uchun stakanlar, flomasterlar, rangli qalamlar, qog‘oz va mato salftkalar. “Bo‘g‘irsoq xalq ertagi” qahramonlari.

Mashg‘ulotning borishi:

I. Tashkiliy qism

- Salomlashish
- Artikulyatsion mashqlar

II. Asosiy qism


“Bingo” strategiyasi

Dumalab-dumalab yuradi	Koptokka, olmaga o‘xshaydi	Sarguzashtlarni yoqtiradi
Ayyorlik kasbi	Momiqqina, yoqimtoy	Doim bo‘rivoyni aldaydi

Asalni yoqtiradi	Juda baxaybat	Butun qish uxlaydi
------------------	---------------	--------------------

Tarbiyachi uzun och yashil rangdagi yoki havo rangli qog‘ozli tasmani oladi va yo‘lkachani to‘lqinsimon yoki to‘g‘ri qilib chizib ko‘rsatadi. Shu yo‘lkadan bo‘g‘irsoq hammaning ajabga qoldirib, sarguzashtlar tomon dumalab ketishini ko‘rsatib beradi. Bo‘g‘irsoq nimaga o‘xshashligini so‘raydi, uni qanaqa chizish yo‘llarini ko‘rsatadi. Bolalar bo‘g‘irsoqni koptokka, olmaga, apelsinga, mandaringa, sharga, quyoshga o‘xshatishadi.

“Bo‘g‘irsoq yo‘lkachadan dumalab ketayapti” rasmi Bo‘g‘irsoq obrazini aylana yoki oval shaklidan foydalanib chizish. Yo‘lkachani to‘lqinsimon yoki gajaksimon chiziqlar orqali tasvirlash chiziq, rang, shakldan to‘g‘ri foydalanish.



Jismoniy daqiqa

Qo‘llarimiz osmonda,
Chapak-chapak chalamiz.
Oyoqlarimiz yerda,
Top, top, tepar top.

III. Mustahkamlash. Venn diagrammasi



IV. Mashg'ulotni yakunlash

Ish tugagach, tarbiyachi bolalarning ijodiy ishlarini tekshirib, baholaydi va ular asosida kichik ko'rgazma tashkil etadi.

Bolalar mashg'ulotda faol ishtirok etgani uchun rag'batlantiriladi.

(Surdopedagog va tarbiyachilar uchun tuzilgan so'rovnoma 2 ilovada keltirildi).

Familiyangiz, ismingiz_____

Qaysi o'quv yurtini tamomlagansiz_____

Pedagogik stajingiz_____

1.Tasviriy faoliyat eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga qanday korreksion ta'sir ko'rsatadi?_____

2.Bolalarda tasviriy faoliyat jarayoniga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?_____

3.Tasviriy faoliyatni o'rganishga qiziqishni qanday rivojlantirish mumkin?_____

4.Tasviriy faoliyatning muntazam murakkablashib borishi, bolalarda badiiy ijod samaradorligini rivojlanishini ta'minlashni qanday rivojlantirish mumkin?_____

5. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarda qanday pedagogik texnologiyalardan foydalanasiz?_____

6. Tasviriy faoliyatni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish jarayonida ota-onalar yordamidan foydalanasizmi?_____
